



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI
VAZIRLIGI**

**Samarqand qishloq xo'jalik instituti
Iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti**

**«Tasdiqlayman»
Iqtisodiyot va boshqaruv
fakulteti dekani, dosent
_____F.Axrоров
«_____»_____2014 y**

5610100 – Fermer xo'jaligini boshqarish va yuritish yo'nalishi bo'yicha

**BITIRUV MALAKAVIY
ISHI**

Mavzu: “Dehqon xo'jaliklarida chorva mollari uchun optimal ratsion tuzish”

**Bajaruvchi: Iqtisodiyot va boshqaruv
fakulteti**

IV - bosqich talabasi

**Ilmiy rahbar,
t.f.n., dosent:**

G'.Raxmatov

I.Abruyev

**Bitiruv malakaviy ishi
muhokama qilinib,
himoyaga tavsiya etiladi
Oliy matematika va axborot
texnologiyalari kafedrası mudiri,
i.f.n. dosent_____X.Urdushev
«_____»_____2014y.**

Samarqand – 2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1.MAVZUNI NAZARIY ASOSLASH VA FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR SHARHI.....	13
2.PASTDARG'OM TUMANI TABIIY-IQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA CHORVA MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUVISHNING TAHLILI.....	23
2.1.Pastdarg'om tumani tabiiy-geografik tasnifi.....	23
2.2. Pastdarg'om tumanida qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish iqtisodiy ko'rsatkichlari.....	26
2.3. Chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish ko'rsatkichlari tahlili.....	32
2.4. Yer va mehnat resurslari va ularning turlari	42
3. CHORVA MOLLARI UCHUN OPTIMAL RATSION TUZISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI QULLASH.....	52
3.1. Ozuqa turlari, ularning to'yimlilik va ratsion	52
3.2. Optimal ratsion tuzish masalasining umumiy strukturaviy matematik modeli.....	58
3.3. Pastdarg'om tumani dehqon xo'jaliklari misolida sog'in sigirlar uchun optimal ratsion tuzish masalasining matematik modeli.....	60
4. MASALANI AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA YECHISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	66
5.QISHLOQ XO'JALIK KORXONALARIDA HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI.....	69
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	72
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	74
ILOVA. INTERNET MA'LUMOTLARI.....	77

KIRISH

Respublikamiz Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi maruzasida keyingi yillarda Respublikamizda barcha sohalarda ulkan muvaffaqiyatlarga erishayotganligi bayon etildi va shu bilan birga iqtisodiyotni yanada barqarorlashtirish va rivojlantirish lozimligi to'g'risida to'xtalib o'tildi.

Ma'ruzada Respublikamizda xalq xo'jaligi sohalari bo'yicha 2013 yilida erishilgan natijalarni tahlil etib quyidagilarni qayd etdilar: "Biz bugun 2013-yilning yakunlari haqida gapirganda, avvalo, o'tgan yilda mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda mutanosiblikka erishgani, modernizasiya va diversifikasiya hisobidan yuqori sur'atlar bilan rivojlanganini qayd etamiz.

Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8 foizga o'sdi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,8 foizga, qishloq xo'jaligi – 6,8 foizga, chakana savdo aylanmasi – 14,8 foizga oshdi. Inflyasiya darajasi prognoz ko'rsatkichidan past bo'ldi va 6,8 foizni tashkil etdi.

O'tgan yil yakunlariga ko'ra, tashqi davlat qarzi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 17 foizni, eksport hajmiga nisbatan qariyb 60 foizni tashkil etdi. Bu avvalambor xorijiy investisiyalar va umuman, chetdan qarz olish masalasiga chuqur va har tomonlama puxta o'ylab yondashish natijasidir.

2013-yilda iqtisodiyot sohasidagi soliq yuki 21,5 foizdan 20,5 foizga, jismoniy shaxslar uchun daromad solig'ining eng kam stavkasi 9 foizdan 8 foizga tushirilganiga qaramasdan, davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,3 foiz profisit bilan bajarildi.2013-yilda 2000-yilga nisbatan aholimizning iste'mol xarajatlari 9,5 barobar oshganining o'zi ko'p narsadan dalolat beradi...".

Ushbu ma'ruzada Prezidentimiz I.Karimov 2014 yilda amalga oshirilishi ko'zlanayotgan ishlarga to'xtalib, jumladan shularni takidladi: " Iqtisodiyotimizning 2014-yilga mo'ljallangan asosiy vazifa va ustivor

yo'nalishlari avvalo bu sohaning yuqori sur'atlar bilan o'sib borishini ta'minlash, buning uchun mavjud barcha rezerv va imkoniyatlarni safarbar etish borasida qabul qilingan strategiyani davom ettirishga qaratilgan.

Yalpi ichki mahsulot hajmini 8,1 foizga, sanoatni 8,3 foizga, qishloq xo'jaligini 6 foizga, chakana savdo aylanmasini 13,9 foizga ko'paytirish, bozor xizmatlarini 16,2 foizga oshirgan holda, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 55 foizga yetkazish ko'zda tutilmoqda.

Soliq yukini yanada kamaytirish, jumladan, yuridik shaxslar uchun foyda solig'i stavkasini 9 foizdan 8 foizga, jismoniy shaxslar uchun eng kam soliq hajmini 8 foizdan 7,5 foizga tushirish iqtisodiyotimiz rivojida albatta muhim ahamiyat kasb yetadi.

2014-yilga mo'ljallangan keng ko'lamli dasturiy maqsad va vazifalar islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish, mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishi yo'lida g'ov bo'lib turgan muammolarni yechish uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishni talab qilishi haqida bugun gapirib o'tirishning zarurati yo'q, deb o'ylayman.

Barchamiz bir yoqadan bosh chiqarib, belimizni mahkam bog'lab, har birimiz o'z joyimizda astoydil mehnat qilsak, Vatanimiz ravnaqi va taraqqiyotiga munosib hissamizni qo'shsak, men ishonaman – oldimizda turgan vazifalar qanday ulkan va murakkab bo'lmasin, biz o'z ko'zlagan ezgu marralarimizga albatta erishamiz...” deb takidladilar.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi tarixan qiqqa davrda jamiyat qurilishida, sosial ta'minot, demokratik tizim, qonun ustivorligi va barcha fukorolarning teng erkinligini ta'minlovchi tizimni yaratish bilan bir qatorda ijtimoiy iqtisodiy sohalarida katta yutuqlarga erishildi, jumladan chorvachilik mahsulotlari yetishtirish, saqlash va qayta ishlash sohalarida yangidan yangi muvaffaqiyatlarga erishdi.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligining eng asosiy tarmoqlaridan biri bu chorvachilik hisoblanadi. Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish tarmog'i aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda asosiy

o'rinni egallaydi. Ma'lumki chorvachilik mahsulotlari oqsilga va turli vitamin, aminokislotalarga, inson organizmi uchun zarur bo'lgan qimmatli mikroelementlarga boydir. Mutaxassslarning tadqiqot xulosalariga ko'ra inson o'zining normal hayot faoliyatini olib borishi uchun zarur bo'lgan energiyaning 60 foizidan ko'prog'ini chorvachilik mahsulotlari iste'mol qilishdan olishi maqsadga muvofiq ekan.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining rasmiy saytida axborot xizmati ma'lumotlariga ko'ra – "Joriy yilning birinchi choragi yakuni bilan go'sht ishlab chiqarish 378,6 ming tonnaga (106,0%), sut ishlab chiqarish 1 mln. 408 ming tonnaga (106,7%), tuxum ishlab chiqarish 978,4 mln. donaga (113,5%), baliq ishlab chiqarish 9 ming tonnaga (123%) yetkazildi". Go'sht yetishtirish 2010 yilda 855 000 tonnani tashkil etgan bo'lsa 2011 yilda bu ko'rsatgich 916200 tonnaga yetkazilgan. Sut ishlab chiqarish 2011 yilda 6169000 tonna bo'lsa 2012 yilda 6766200 tonnani tashkil etgan. Shuningdek jun, tuxum, qorako'l teri, pilla yetishtirish ham rivojlangan. Chorvachilik mahsulotlarini ham yetishtirishda dehqon xo'jaliklarining ulishi salmoqlidir.

2014 yilda qoramolchilikni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan Dasturlar doirasida: qoramollar sonini 11 mln.145 ming boshga, shundan sigirlar sonini 4 mln. 120 ming boshga yetkazish; chetdan 8 ming boshdan ortiq naslli qoramollar olib kelish; 2 mln. 100 ming bosh sigirlarni sun'iy urug'lantirish belgilangan.

Qoramolchilik bo'yicha 532 ta kichik qoramolchilik xo'jaliklari tashkil etildi va ularda 14 ming 64 bosh qoramol parvarish qilinmoqda. Buning uchun jami 84 mlrd. 794 mln. so'mlik mablag' o'zlashtirildi. Qoramolchilikni rivojlantirishda naslchilikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Joriy yilda xorijiy davlatlardan jami 31 bosh naslli qoramollar olib kelinib, ularning umumiy soni 36 ming 621 boshni tashkil etadi. Bugungacha chetdan keltirilgan naslli mollardan 104,2 ming boshdan ortiq naslli buzoqlar olindi va ularning umumiy soni 148,8 ming boshga yetkazildi.

Naslchilik xo'jaliklarida tayyorlangan 1,6 ming boshdan ortiq naslli mollar, auksion savdolari orqali aholi va dehqon xo'jaliklariga sotildi. Sun'iy

urug'lantirish uchun joylarga 395 ming dozadan ortiq naslli urug' yetkazib berildi. Mavjud 4,5 mingdan ortiq zooveterinariya va sun'iy urug'lantirish shoxobchalari tomonidan 217 ming bosh sigirlar sun'iy urug'lantirildi. Shu kunga qadar zooveterinariya shoxobchalari orqali 2,8 mlrd. so'mlik servis xizmatlari ko'rsatildi (o'tgan yilga nisbatan 1,1 mlrd. so'm ko'p).

Kam ta'minlangan oilalarga jami 1669 bosh qoramol bepul yetkazib berildi.

Joriy yilning birinchi choragida chorva mollari ozuqa bazasini mustahkamlash maqsadida barcha toifa xo'jaliklar tomonidan 6,7 ming gektar asosiy maydonlarga bahorgi beda, 915 gektarga silos uchun makkajo'xori va 1644 gektar maydonga xashaki lavlagi ekilishi ta'minlandi. Shundan, chorvachilikka ixtisoslashgan xo'jaliklar tomonidan 5,9 ming gektar yangi beda, 647 gektar silos uchun makkajo'xori va 1,3 ming gektar xashaki lavlagi ekildi. Bundan tashqari qoramolchilikka ixtisoslashgan naslchilik fermer xo'jaliklariga 53 dona zamonaviy sut sog'ish uskunasi o'rnatildi...".

O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra yildan-yilga chorva mollarining tuyoq sonlari va chorva mahsulotlari yetishtirish ko'payib bormoqda. Masalan yirik shoxli mollar soni 2011 yilda 9 094 700 boshni tashkil etgan bo'lsa 2012 yilda 9642700 boshga yetdi. Sigirlar soni esa 2011 yilda 3758100 bosh bo'lsa 2012 yilda esa 3878400 boshga yetkazildi. Shuningdek qo'y echkilar, parrandalar va otlar soni ham ko'paygan. chorva mollarining barcha turlari ham asosan dehqon fermer xo'jaliklarida boqiladi. Jumladan yirik shoxli mollarning 93,7% i, sigirlarning 94,7% i, chuchqalarning 79,5% i, Qo'y va echkilarning 80,5% i, parrandalarning 60,2% i va otlarning 83,5% i dehqon xo'jaliklariga to'g'ri keladi. Shuningdek chorvachilik mahsulotlari yetishtirish ham ko'paymoqda: Chorvachilik mahsulotlarini ham yetishtirishda dehqon xo'jaliklarining ulishi salmoqlidir.

Respublikamizda Prezidentimiz rahnomaligida olib borilayotgan oqilona siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy siyosat natijasida qishloq xo'jaligida chuqur tarkibiy, ijtimoiy va mulkiy munosabatlar o'zgarishi yuz berdi. Keyingi yillarda

Respublikamiz iqtisodiyotni jumladan, qishloq xo'jaligini tubdan isloh qilishning nazariy asoslari Prezident I.Karimov tomonidan ishlab chiqildi. Prezidentimiz asarlarida iqtisodiy rivojlanishning turli xil konsepsiyalari taxlil etildi. Bu konsepsiyalari qishloq xo'jaligining maqsadli muammolarini yechishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Birinchi konsepsiya- Asosiy ehtiyojlar konsepsiyasi- aholi eng kam tirikchilik ehtiyojini kafolatli tarzda ta'minlash va ish bilan band qilish muammosini xal etishga qaratilgan;

Ikkinchi konsepsiya- Maqbul yoki tegishli texnologiya konsepsiyasi- aholining mehnatga layoqatli qismining bandligini ta'minlaydigan va maxalliy xomashyoni, avvalo qishloq xo'jaligi xomashyosini birlamchi va chuqur qayta ishlashga qaratilgan. Bu konsepsiya eng ilg'or texnologiyalarni rivojlantirish zarurligiga asoslanadi;

Uchinchi konsepsiya – O'z kuchiga jamoa bo'lib ishonish konsepsiyasi – mavjud zaxiralardan to'liqroq foydalanishga va mamlakat iqtisodiyotini boshqa davlatlar qaramligiga barham berishga qaratilgan;

To'rtinchi konsepsiya – Yangi xalqaro iqtisodiy tartib konsepsiyasi – rivojlanayotgan yurtimizning iqtisodiy qoloqligini tugatish va boshqa davlatlar bilan teng xuquqli sheriklar sifatida faoliyat yuritishga qaratilgan.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirish - ko'p jihatli jarayon bo'lib, hozirgi sharoitda qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning quyidagi omillari muhim ahamiyat kasb etadi:

-Iqtisodiy munosabatlarni tubdan qayta qurish. Qishloq xo'jaligini yuksaltirishni birlamchi masalalaridan biri qishloqda iqtisodiy munosabatlarni o'zgartirish, dehqonlarga kam xarajatlar sarflagan holda ko'plab sifatli mahsulot yetishtirishga intilish hissiyotiga ega bo'lgan yerning haqiqiy egalik huquqini qaytarish. Qishloqda iqtisodiy qayta qurishning asosida - dehqonlarga mustaqil harakat etish, tadbirkorlik va tashabbuskorlikni amalga oshiririshga zamin yarata oladigan xo'jalik yuritishning turli mulkchilikka va shakliga asoslangan muhitni yaratish.

-Yetishtirilgan mahsulotlarni asrash, uni nobudgarchiligini oldini olish. Qishloq xo'jaligini mavsumiylik xususiyatini unga mutanosib holda ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlanishiga bo'lgan talabni yanada oshiradi. Qishloq xo'jaligida yuritishning turli mulkchilik shakllarini keng rivojlantirish orqali ishlab chiqarishga yaqin yillarda saqlash, qayta ishlash shoxobchalarini yaratilishi imkoniyatlari tug'iladi. Mahsulotlarni nobudgarchiligini oldini olish bilan bir qatorda ularni tashish bilan bog'liq xarajatlarni kamayishiga erishiladi.

-Qishloq xo'jaligini kimyolashtirish. Ishlab chiqarishni kimyolashtirishning asosida yerning unumdorligini oshirish orqali o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishni ko'paytirishga qaratilgan tadbirlar yotadi:

- Hosildorlikni oshirishga qaratilgan mineral o'g'itlarni tadbiq etish tadbirlari;
- Kimyoviy vositalardan begona o'tlarga qarshi kurashish tadbirlari;
- o'simlik va chorva mollari zararkunanda hashoratlari va kasalliklariga qarshi kurashishda kimyoviy vositalardan foydalanish;

-Chorva mollarini to'yimligini oshirishda kimyoviy chiqarilgan mahsulotlarini keng ko'lamda qo'llanishiga qaratilgan tadbirlar.

-Qishloq xo'jaligida, Kimyo sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni keng ko'lamda qo'llanilishiga qaratilgan tadbirlar.

-Qishloq xo'jaligini meliorasiyalash. Qishloq xo'jaligi mahsuldorligini qo'shimchalardan foydalanish. Qishloq xo'jaligida, kimyo sanoatida, ishlab chiqarishni oshirishda - sug'orish, zax qochirish, yerni ohaklash, sho'rni yuvish tadbirlarini o'z vaqtida, sifatli amalga oshirish muhim omillar jumlasiga kiradi.

Resurs talabchanligi kam bo'lgan intensiv texnologiyalarni qo'llash.

Chorvachilikda texnologiyalarni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari:

- a) Chorva mollarini saqlash, boqish va boshqa yo'nalishlarda intensiv texnologiyalarni joriy etish;

- b) Mollar ozuqasi va ulardan olinadigan mahsulotlarni standartlashtirish;

- d) Chorva mahsulotlari ishlab chiqarishni sanoat asosiga o'tkazish.

- e) Chorva mollarining tarkibi sifatini va ularning ozuqa bazasini yaxshilash.

Chorvachilikni intevsivlashtirishning muhim omili poda harakati va sifatini

yaxshilash hisoblanadi, bunga yuqori mahsuldor mollar nasllarini yaratish bilan bog'liq tadbirlar kiradi. Chorvachilikni rivojlanishida uning mustahkam ozuqa bazasini yaratish muhim bo'lib, ozuqa tarkibi, ko'lami va uning sifatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni o'z ichiga oladi.

-Ishlab chiqarishni joylashtirish va ixtisoslashtirishni takomillashtirish. Fan-texnika taraqqiyoti ta'sirida qishloq xo'jalik ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanishi va ijtimoiy mehnat taqsimotining chuqurlashuvi tinimsiz yuksala boradi. Shu bilan birga iqtisodiy asoslangan qishloq xo'jalik korxonalarining optimal katta-kichikligi, ularni mehnatga muvofiq ixtisoslashuviga, dehqonchilik va chorvachilik madaniyatini ko'tarishga, fan-texnika yutuqlarini amaliyotga tadbiq etilishiga zamin yaratilib, natijada mahsulot yetishtirishni samaradorligini oshirishga erishiladi.

-Mutaxasislarning malakasini oshirish. Qishloq xo'jaligiga fan yutuqlarni tadbiq etishda kadrlarni mutaxassislik saviyasini va texnik tayyorgarlik darajasini oshirmay turib erishish mumkin emas. Qishloq xo'jaligida mutaxasislarni malakasini oshirish birinchidan, mutaxassislarga murakkab va ilgari amalga oshira olmagan ishlarni bajarish uchun ularni malakasini oshirish va egizak kasblarni egallashiga zamin yaratish, ikkinchidan nisbatan yuqori sifatga ega bo'lgan mahsulot olish, uchinchidan ma'lum bir vaqt oralig'i davomida avvaldagidan ko'proq mahsulot ko'lamini yetishtirish yoki xizmatlar hajmini bajarishga imkon yaratish.

-Ishlab chiqarishga fan-texnika yutuqlari va ilg'orlar tajribasini tadbiq etish. Hozirgi sharoitda qishloq xo'jaligini intensivlashtirish sur'atlarini oshirish va uning samaradorligini ko'tarishda fan yutuqlari natijalarini tadbiqisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Fan-texnika sohalaridagi yutuqlar ishlab chiqarish kuchlarini yanada yuksaltiruvchi muhim omil bo'lib, ishlab chiqarish resurslari qatorida ishlab chiqarish jarayonlarida ishtiroq etadi. Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishda amaliyotda mavjud bo'lgan ilg'or tajribalar natijasini tahlil qilish va ularni ishlab chiqarishga keng tadbiq qilinishi katta ahamiyat kasb etib, mahsulot ko'lamini

ko'payishiga va ishlab chiqarish samaradorligining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

2014 yil bahori seryog'in kelmoqda. Bu holat chorva uchun eng qulay va chorva mollarini o'tlatib boqishga katta imkoniyatlar beradi. Xo'jaliklarda ko'pgina hollarda doimiy o'tlatib boqishga amal qilinadi, bu ayniqsa mollar uzoq vegetasiya davri mobaynida ayni bir yer maydonida uzluksiz o'tlatib boqilganda muhimdir. Yaylov ozuqasi bilan ta'minlanganlik darajasi "eng qulay iste'molga" muvofiq kelishi uchun o'tzor va yaylov xo'jaligini yuritishni tashkil etish va uni boshqarish ishida yuqori malakaga ega bo'lish kerak. Agar sut beradigan sigirlarni o'tlatishda o'tning balandligi 6-8 sm ga yetmasa, mol zarur kondisiyani olmaydi, ammo bundan tashqari yaylovda mollar taqsimotini ham to'g'ri ta'minlash kerak. Chorvachilikni rivojlantirish eng avvalo uning yem- xashak bazasini mustahkamlik darajasiga bog'liq. Bu borada omuxta yem bilan chorvadorlarni ta'minlash masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Omuxta yemning miqdolri respublika chorva mollari uchun talab qilinadigan miqdordan ancha kam. Sanoat korxonalarida yetishtirilayotgan omuxta yem fermerlar uchun bir narxda, aholi uchun ikkinchi narxda sotilmoqda. Ushbu holatni yaxshilash uchun yog'- moy yetishtiruvchi (chigitni qayta ishlovchi), donni qayta ishlovchi korxonalarning mahsulotlarini ikki tartibda sotishni tashkil etish maqsadga muvofiq. Birinchidan, omuxta yem birjalarida erkin sotilishi maqsadga muvofiq. Ikkinchilan, chigitni va donni qayta ishlovchi korxonalarning joylarda ixtisoslagshgan savdo shaxobchalarini tashkil etish lozim. Ushbu savdo shaxobchalari fermerlarga maxsus grafiklar asosida (fermerlar yetishtirgan paxta, sotgan don uchun orlishi lozim bo'lgan yog' moy va omuxta yemni olsin) xizmat qilsin. Qolgan qismini esa aholinga fermerlarga sotilgan narxda sotishni tashkil etish lozim.

Servis xizmatlarini tashkil etish chorvachilik tarmog'ida ham katta rol uynaydi va g'oyat muhim masala hisoblanadi. Chorvachilik mahsulotlari bozorining rivojlanishiga e'tibor qaratish kerak. Ma'lumki chorvachilik mahsulotlari asosan dehqon bozorlarida sotilmoqda. Albatta bu tizim asrlar davomida shakllanib kelgan va halq bu bozorlarga ko'nikib ketgan. Lekin xozirgi

davr talabiga ko'ra masalaga chuqurroq qaraydigan bo'lsak, mavjud holat bilan qanoatlanib bo'lmaydi.

Chorvachilik tarmog'iga doir masalalarni yechishda zamonaviy usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ko'pgina masalalar, jumladan chorva mollari uchun optimal ratsion tuzish masalasi, poda tarkibini optimallashtirish masalasi, yem-xashak zaxiralaridan optimal foydalanish kabi masalalar va ularni optimizasion usullar yordamida yechish shu soha rivojlanishida muhim rol uynaydi. Ushbu masalalar murakkab bo'lib, ularni yechishda iqtisodiy matematik modellashtirish va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining yaratilishi va barcha sohalarning ularga bo'lgan talabi turli sohadagi ko'pgina masalalarni jumladan qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy masalalarni hal etishda, yangi modellashtirish, iqtisodiy matematik modellashtirish usulini keng qo'llashga imkoniyat yaratdi. Chunki bunday masalalarning yechimlari millionlab variantlarga ega bo'lib, ularni hisoblab, ular ichidan eng qulay variantini tanlash axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz mumkin emas edi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va iqtisodiy matematik modellashtirish usullari kompyuterlar yordamida bu masalalarni hal etish imkoniyatini beradi.

Insoniyat turmush tarzini to'g'ri tashkil etishda, faravon yashashni ta'minlashda chorva mahsulotlarining o'rni beqiyosdir. Mo'l va sifatli chorvachilik mahsulotlari yetishtirish, jumladan gusht va sut mahsulotlarga bo'lgan talabni to'la qondirish muhim masala hisoblanadi. Buning uchun sigirlarning mahsuldorligini oshirishda optimal ratsion tuzish katta ahamiyatga ega bo'lib, bu dolzarb masala hisoblanadi.

Ishning maqsadi. Dehqon xo'jaliklaridasog'in sigirlar uchun optimal ozuqa ratsionini tuzishda, eng orzon, aniq va samarador bo'lgan iqtisodiy matematik modellashtirish usullari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda maqbul yechimlar topishdan iborat.

Ishning vazifalari.

1. Mavzuga doir manbalar - qonunlar, farmonlar, qarorlar, me'yoriy hujjatlar va tegishli asosiy adabiyotlar va internet manbalarini o'rganish va tahlil qilish .
2. Tanlangan obyekt iqtisodiy ko'rsatkichlarini o'rganish va tahlil qilish. Dehqon xo'jaliklarida chorva mollari uchun yem- xashak turlari va ularning xususiyatlarini ochib berish.
3. Dehqon xo'jaliklarida optimal ratsion tuzish masalasini modellashtirish va sog'in sigirlar misolida qo'llash.

Ushbu malakaviy bitiruv ishida biz Pstdarg'om tumani chorvachilik xo'jaliklari misolida sog'in sigirlar uchun optimal ratsion tuzish masalasini mavzu qilib oldik. Ushbu masala obyekti murakkab tizimni tashkil etib, ko'p variantli yechimga egadir. Shuning uchun ham barcha masalaga tegishli asosiy omillarni hisobga olish va barcha mumkin bo'lgan variantlarni ko'rib chiqish, ular ichidan eng maqbulini tanlab olish uchun albatta zamonaviy kompyuter texnologiyalarini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

1.MAVZUNI NAZARIY ASOSLASH VA FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu bitiruv malakaviy ishini tayyorlashda 4 yil davomida Samarqand qishloq xo'jalik institutida o'qish jarayonida o'tilgan darslarida olingan bilim va ko'nikmalarimiz asosida bajarishga harakat qildik. Shuningdek Iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti professor-o'qituvchilari, zootexniya, iqtisodiyot va axborot texnologiyalari sohalaridagi mutaxassisleri yo'l-yuriqlari, ular bilan bo'lgan muloqatlar, iqtisodiyot, matematik modellashtirish, informatika, axborot texnologiyalari fanlari bo'yicha olingan saboqlar, o'quv uslubiy majmualar va Pastdarg'om tumani chorvachilik xo'jaliklarning faoliyatlaridan, hisobotlaridan foydalanildi. Bitiruv ishini tayyorlashda ko'pgina sohaga tegishli manbalardan – darslik, o'quv qo'llanmalar va ilmiy maqolalar, hamda internet ma'lumotlaridan foydalandik. Prezidentimizning shu sohaga tegishli asarlarni, hukumat qarorlari normativ va me'yoriy xujjatlarni, matematik usullar va axborot texnologiyalarining qishloq xo'jaligi masalalarini yechishda qo'llanishiga doir adabiyotlar va boshqa ilmiy manbalarni o'rgandik va tahlil qilindi.

Quyida bitiruv malakaviy ishda foydalangan asosiy manbalarning ba'zilarini sharxlab o'tamiz:

1.Karimov I.A. 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida.// Xalq so'zi.17.01.2014.

Har yil boshida Vazirlar Mahkamasining hisobot yili yakunlariga va joriy yil rejalariga bag'ishlab o'tkaziladigan majlisida Prezidentimiz ma'ruzasida Respublikamizda 2013 yilda amalga oshirilgan asosiy yutuqlarimizga va 2014 yilda amalga oshirilishi ko'zlanayotgan ishlarga tuxtalib o'tdi. Ma'ruzada 2013 yilda qilingan ishlarni ifodalovchi iqtisodiyotning rivojlanganligiga doir bir qancha faktlar keltirildi. Jumladan, 2012 yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8 foizga o'sganligi (2012 yilda 8,3 foizga o'sgan), sanoat ishlab chiqarish hajmi 8,8 foizga(2012 yilda 7,7 foizga o'sgan), qishloq xo'jaligi 6,7 foizga(2012 yilda 7,0 foizga o'sgan). Infilasiya darajasi prognoz ko'rsatkichidan past bo'lgan va 6,8 foizni tashkil etgan.Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan xarajatlar

yuqori darajada saqlanib qoldi va umumiy xarajatlarning 59,3 foizini tashkil yetdi. yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushi hozirgi vaqtda 24,2 foizdan ziyodni tashkil etmoqda. Holbuki, bu ko'rsatkich 2000-yilda 14,2 foizdan iborat edi.

Ma'ruzada 2013 yilda qishloq xo'jaligi sohasida erishilgan yutuqlarimizga ham to'xtalib o'tildi. Ma'ruzada keltirilganidek: "2013-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2000-yilga nisbatan 2,3 barobar ko'paydi. Faqat o'tgan yilning o'zida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 6,8 foizga, jumladan, dehqonchilik – 6,4 foizga, chorvachilik – 7,4 foizga o'sdi. Aytish kerakki, izchil yuqori o'sish sur'atlari bilan birga, yalpi ichki mahsulotning umumiy hajmida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Masalan, 2000-yilda bu boradagi ko'rsatkich 30,1 foizni tashkil yetgan bo'lsa, 2013-yilda faqatgina 16,8 foizni tashkil yetdi.

O'tgan 2013-yilda mirishkor dehqon va fermerlarimizning fidokorona mehnati bilan misli ko'rilmagan natijalarga erishildi – 7 million 800 ming tonna g'alla, 8 million 400 ming tonna sabzavot yetishtirildi. Mamlakatimizning ulkan xirmoniga 3 million 360 ming tonnadan ortiq paxta xomashyosi yetkazib berildi.

Shuningdek ma'ruzada ijtimoiy, xizmat ko'rsatish va boshqa sohalarda erishilgan muvaffaqiyatlarga ham to'xtalib o'tildi.

Prezident o'z ma'ruzasida 2013 yilda erishilgan muvaffaqiyatlarga qaramasdan kelgusida qilinadigan ishlar ko'p ekanligini takidladilar. Ma'ruzada joriy 2014 yilda qilinadigan ishlar dasturining ustivor yo'nalishlarini belgilab berdilar.

2.Karimov I.A.2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yo'llari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.//Xalq so'zi.18.01.2013.

Prezident Islom Karimov Vazirlar Mahkamasi ushbu ma'ruzalarida O'zbekistonda 2012 yilda amalga oshirilgan yutuqlarimizga va joriy 2013 yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan ishlarga tuxtalib o'tdi. Ma'ruzada hisobot yilida amalga oshirilgan ishlar bo'yicha tuxtalib, "O'zbekiston o'z iqtisodiyotini barqaror sur'atlar bilan rivojlantirishni davom ettirdi, aholi turmush darajasini izchil yuksaltirishni ta'minladi, dunyo bozoridagi o'z

pozitsiyasini mustahkamladi”, deb takidladilar. Ma’ruzada 2012 yilda qilingan ishlarni ifodalovchi iqtisodiyotning rivojlanganligiga doir bir qancha faktlar keltirildi. Jumladan, 2012 yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,2 foizga usganligi, sanoat ishlab chiqarish hajmi 7,7 foizga, qishloq xo’jaligi 7 foizga, chakana savdo aylanmasi 13,9 foizga oshganligi, eksport hajmi 11,6 foizga o’sganligini takidladilar.

Respublika jami xarajatlarining asosiy qismi, ya’ni qariyb 59,2 foizi ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishga qaratildi, uning 34 foizdan ortig’i ta’lim, 14,5 foizdan ko’prog’i sog’liqni saqlash sohalarini moliyalashtirishga yo’naltirildi.

Ma’ruzada qishloq xo’jaligi sohasiga katta baho berilib o’tildi. Jumladan quyidagilar takidlandi “...barcha qishloq mehnatkashlariga ularning mardligi va matonati, mamlakatimizning taraqqiyoti va ravnaqiga qo’shayotgan ulkan hissasi uchun o’zimning chuqur hurmatim va samimiy minnatdorligimni bildirish menga katta mamnuniyat bag’ishlaydi. ...Mamlakatimizda, xorijiy davlatlar tajribasini chuqur o’rgangan holda, qishloq xo’jaligini iqtisodiy isloh etish bo’yicha o’ta muhim chora-tadbirlarning amalga oshirilayotgani, qishloqda bozor munosabatlarini joriy yetish va xususiy mulkchilik shaklini rivojlantirish, fermerlik harakatini qo’llab-quvvatlash uchun huquqiy, tashkiliy hamda moliyaviy shart-sharoitlarni tug’dirib berish bunday yuksak natijalarni qo’lga kiritishda hal qiluvchi omil bo’lmoqda, desam, hych qanday mubolag’a bo’lmaydi” deb takidladilar.

Ma’ruzada fermerchilikka katta e’tibor berilayotganligi va bu yo’lning to’g’ri ekanligini takidladi: ...”Bugungi kunda fermer xo’jaligi haqli ravishda qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishining yetakchi bo’g’iniga, uni tashkil yetishning asosiy shakliga aylandi. Hozirgi vaqtda fermerlik harakati o’z tarkibida 66 mingdan ziyod fermer xo’jaligini birlashtirmoqda. Mamlakatimizdagi jami haydaladigan yerlarning 85 foizdan ortig’i, yetishtiriladigan qishloq xo’jaligi mahsulotlarining asosiy qismi aynan fermerlar hissasiga to’g’ri kelmoqda. ...Kun sayin mustahkamlanib, hal qiluvchi kuchga aylanib borayotgan fermerlik harakati O’zbekistonda o’zini to’la oqladi va bunga hych qanday shubha bo’lishi mumkin

yemas, desam, o'ylaymanki, barchamizning umumiy fikrimizni ifoda yetgan bo'laman" deb e'tirof etldi.

Prezident 2013 yilda qilinadigan ishlarga ham to'xtalib o'tdi. Jumladan quyidagilarni takidladilar: "... 2013-yilda izchil yuqori o'sish sur'atlarini, makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash va iqtisodiyotimiz raqobatdoshligini oshirish eng muhim ustuvor yo'nalishimizga aylanishi darkor.....Joriy yilda mamlakatimiz iqtisodiyotini 8 foizga, sanoatni 8,4 foizga, qishloq xo'jaligini 6 foizga, asosiy kapitalga kiritilgan investsiyalar hajmini 11 foizga, xizmat ko'rsatish sohasini qariyb 16 foizga oshirish va yalpi ichki mahsulotda uning ulushi 53 foizgacha o'sishini ta'minlash vazifasi qo'yilmoqda..." va hakozi qilinadigan ishlar to'g'risida to'xtalib o'tdilar.

3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. - T.:O'zbekiston, 2011.

Asarda Prezidentimizning mustaqillik arafasida va mustaqillikning dastlabki yillarida, ya'ni 1989-1991 yillarda olib borgan siyosiy-iqtisodiy faoliyatini aks ettiradigan ma'ruzalari, nutqlari, so'zhat va maqolalar o'rin olgan.

Asar asosan 5 ta katta mavzuga bo'lingan bo'lib, 1-mavzu- kirish qismida kitobning yozilishidan ko'zlangan maqsad, 1980 yillarning so'ngida sobiq SSSR dagi, xususan O'zbekiston SSR dagi siyosiy-ijtimoiy vaziyat. Jamiyatni yangilash uchun kurashayotgan barcha sog'lom kuchlarni birlashtirish zarurati. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi. O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish, ta'lim va ilm-fan sohasida o'zgarishlar qilish zarurligi. 2-mavzu: Xalq irodasi bilan tanlangan yo'l qismida Prezidentning 1989 yil 28 noyabr kuni O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasidagi, 1990 yilning 20 yanvar kuni Toshkent shahar faollari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvdagi nutqlarida O'zbekistonning kelgusi taraqqiyoti yo'li haqida bildirilgan fikrlar.

Aholi turmush darajasini oshirish uchun olib borilgan harakatlar 1990 yilning fevral oyida o'tkazilgan O'zbekiston SSR xalq deputatlari va Respublika xalq deputatlarining mahalliy Sovetlariga o'tkazilgan saylovlar. O'zbekistonda Prezidentlik institutining joriy etilishi. Mustaqillik deklarasiyasining qabul

qilinishi. O'zbekistonda huquqiy davlat yo'lining tanlanishi. O'zbekistonning iqtisodiy mustaqillikka erishuvdagi dastlabki qadamlar. Ulug' mutafakkirlar ma'naviy merosining o'rganilishi. Abu Iso Muhammad ibn Iso At-Termiziy tavalludining 1200 yilligi, "Boburnoma" kitobining 460 yilligini nishonlash kabilar o'rin olgan.

3-mavzu: O'zbekistonda mustaqillik arafasidagi iqtisodiy-ijtimoiy vaziyat qismida. Mintaqaviy muammolar va ularning yechimlari. Bozor iqtisodiyotiga o'tishdagi dastlabki qadamlar. Navro'z bayramining umumxalq bayrami deb e'lon qilinishi. Murakkab vaziyatda oqilona siyosatning yuritilishi. Kolxoz va sovxozlarning xo'jalik yuritish mexanizmini qayta qurish zarurati. Xalqimizning ruhini, g'ururini tiklash borasida boshlangan ishlar, Islom Karimovning "O'zbekiston – mustaqil respublika, uning o'z tanlagan yo'li bor. Respublikaning barcha tabiiy boyliklari xalq farovonligiga xizmat qilishi kerak" – degan g'oyasining ahamiyati. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy va siyosiy aloqalari.

4-mavzu: O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining e'lon qilinishi mavzusida 1991 yilning avgust oyidagi SSSRda siyosiy hayotning izdan chiqishi. Favqulodda holat davlat komiteti va uning siyosati. Ushbu vaziyatlarga O'zbekiston Respublikasi rahbariyatining munosabati. Prezident Islom Karimovning Respublika aholisiga murojaati. Mamlakatda vujudga kelgan ahvol va respublika manfaatlarini himoya qilish maqsadida O'zbekiston SSR Prezidenti farmonining e'lon qilinishi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991 yil 31 avgustda bo'lib o'tgan navbatdan tashqari oltinchi sessiyasi. "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi.

5-mavzu: O'zbekistonning dunyo xaritasidan munosib o'rin olishi qismida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi VIII sessiyasida "O'zbekiston Respublikasi Referendumini o'tkazish to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazish to'g'risida"gi Qarorlarining qabul qilinishi. 1991 yil 29 dekabrda bo'lib o'tgan referendum va uning yakunlari. Xalqimizning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining ma'qullanishi. 1991 yil 29 dekabrda bo'lib o'tgan Prezident saylovi va uning yakunlari. Islom Abdug'aniyevich Karimov — Mustaqil O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti. Jahonning

yirik davlatlari tomonidan O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida tan olinishi. Tinchlik, totuvlik, osoyishtalikni saqlash – Prezidentning bosh vazifasi ekanligi takidlangan. 6-mavzu: Xulosa. Ma'naviy jasorat namunasigismida 1991 yil 31 avgust sanasida qo'lga kiritilgan milliy mustaqillik — XX asrda xalqimiz tomonidan amalga oshirilgan buyuk ma'naviy jasorat namunasi. Bu jarayonda Prezident Islom Karimov jasoratining namoyon bo'lishi.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarni ko'paytirishni rag'batlantirish chora- tadbirlari to'g'risidagi.26.03.2006.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu qaror chorvachilikni rivojlantirishning strategiyasini belgilab berdi va bozor iqtisodiyoti sharoitida shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'payishiga, ichki bozorni chorvachilik mahsulotlari bilan to'ldirishga imkoniyat yaratdi. Chorva mollari ko'paytirishdan maqsadi mamlakatimizda shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish hamda mustahkamlash, birinchi navbatda qoramol boqish va yetishtirish, shu asosda mamlakatimizni aholisini chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishda mahalliy mehnat resurslaridan foydalangan holda amalga oshirishga turtki bo'ldi. Qarorda "2006-2010 yillar davrida shaxsiy-yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollari, birinchi navbatda qoramollar sonini ko'paytirishni rag'batlantirish dasturi ma'qullansin" deb ta'kidlab o'tilgan. Mazkur dasturga ko'ra qishloq xo'jaligida qoramollar sonining ko'payishi, zooveterinariya punktlari va chorva mollarni sun'iy punktlari tarmoqlari kengayishi, zotli mollarni auksionlar orqali sotish yoki bepul berish ko'zda tutilgan. Ushbu rag'batlantirishlar qishloq aholisi mehnatga, kelajakka umid bilan ishlashga ko'mak beradi. Shuningdek chorvachilik mahsulotlari qayta ishlash sexlarini ochishga, mahsulot turlarini ko'paytirishga bo'lgan talab yangi- yangi shaxsiy va xususiy mulkdorlarni ishlashlariga imkon beradi.

5. Abruyev I., Urdushev X. Ozuqaratsionini optimallashtirish. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand: SamQXI, 2001.

Qullanmada chorva mollari uchun ratsion tuzish yullari va ularni yangi axborot-kommunikasiya texnologiyalari va matematik modellashtirish usullari yordamida optimallashtirish masalasi qaralgan. Ushbu uslubiy qo'llanmada ozuqa ratsionini optimallashtirish masalasi sog'in sigirlar misolida maqbul varianda ratsion tuzishga bag'ishlangan bo'lib, ushbu masalaning strukturaviy, sonli matematik modeli tuzulgan va test misollarida kompyuterda Simpleks metodiga tuzilgan dastur yordamida yechilgan. Shuningdek foydalanuvchilar va talabalar mustaqil yechishlari uchun bir qancha variantlarda masalalar keltirilgan.

6.Богданов Г.А. Кормление сельскохозяйственных животных. Учебник.- М.: Агропромиздат, 2000.

Darslikda ozuqalar to'yimliliigi, hayvonlarni yetarlicha oziqlantirish, ozuqalarni standartlashtirish va sinflarga bo'lish, oziqlantirishni samarali tashkil etish va buning uchun axborot kommunikatsiya texnologiyalari va matematik modellashtirish usullaridan foydalanish masalalari keltirilgan. Ushbu kitobda ratsion tarkibi, normalari, ozuqa turlari va ular tarkibidagi to'yimli moddalar miqdori keltirilgan. Shuningdek turli xayvonlar uchun ratsion keltirilgan.

7. Jo'rayev F. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. Darslik. –T.: Istiqlol, 2004.

Mazkur darslikda qishloq xo'jaligi sohasida ishlab chiqarish munosabatlarini bozor iqtisodiyoti asosida shakllantirishning dolzarb masalalari, turli xil mulk shaklidagi korxonalarni tashkiliy- xo'jalik asoslari, xususan fermer xo'jaliklarni yangi konsepsiya asosida shakllantirish va rivojlantirish, ishlab chiqarishni tashkil etishda ijara munosabatlari va oila (jamo) pudratining o'rni, mehnatga haq to'lashning yangi tizimi, xo'jalik yuritish mexanizmlarini takomillashtirish, dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarini tashkiliy- iqtisodiy asoslari, biznes rejalashtirishni takomillashtirish va shunga o'xshash dolzarb muammolarni o'rganishning nazariy va amaliy asoslari aks ettirilgan.

Kitobning chorvachilik tarmoqlarini tashkil etishning ilmiy asoslarini o'z ichiga olgan III bo'limdagi 6 bobni olib ko'radigan bo'lsak unda chorvachilik tarmoqlarini shakllantirish bir tizim sifatida o'z aksini topib, ishlab chiqarish

samaradorligini oshirishning ilmiy asoslari keng va tushunarli qilib bayon qilingan. Fermer xo'jaliklarining fermalarini qayta shakllantirish va barqaror taraqqiy ettirish bilan nodavlat chorvachilikni jadallashtirish va ixtisoslashtirishning asosiy yo'llari ko'rsatib berilgan. Fikrimizcha mazkur darslikda Hukumatimiz bozor iqtisodiyoti talablari asosida chorvachilikni rivojlantirish yo'llari nazariy va amaliy jihatdan talqin qilingan.

8. Ismoilov A., Murtazayev O. Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti. – T.: Moliya, 2005.

Ushbu darslik qishloq xo'jalik oliy o'quv yurtlari talabalariga mo'ljallangan bo'lib, bozor iqtisodiyotiga o'tish davridagi muhim iqtisodiyot muammolarni o'z ichiga qamrab olgan. Darslik 4 bo'limdan iborat bo'lib 1-chi bo'lim qishloq xo'jalik resurslari va ulardan samarali foydalanish masalalariga bag'ishlangan. 2-chi bo'lim esa qishloq xo'jalik resurslari, moddiy texnika resurslari, investisiya va kapital quyilmalarga bag'ishlangan. 3-chi bo'limda esa qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining samaradorligi masalari ochib berilgan. 4- chi bo'limda o'simlikchilik va chorvachilik tarmoqari samaradorligini oshirish imkoniyatlari keltirilgan bo'lib, barcha asosiy tarmoqlar bo'yicha bu masala bayon etilgan. 5-bo'lim 29-30-31-32-33-34- boblari chorvachilik tarmoqlari samaradorligini oshirishga bag'ishlangan.

9. Sanayev G'.N. Fermer xo'jaliklarida sut-go'sht mahsulotlari xarajatlarini hisobga olish, ularning tannarxini hisoblashni takomillashtirish. Monografiya. – T.:Fan,2007. - 119 b.

Monografiya kirish, 3 bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalar tashkil etgan.

Kitobda chorvachilik fermer xo'jaliklarida, jumladan qoramolchilik tarmog'ida sut- go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida mahsulotlarni yetishtirish xarajatlari hisobi va ularning tannarxini aniqlashning metodologik va uslubiy jihatlari Respublikamizda istiqbolli xo'jaliklardan bo'lgan fermer xo'jaliklari misolida keng va oddiy tilda yozilgan.

Kitobning birinchi bobida agrosanoat majmuida turli mulk shakllariga asoslangan xo'jalik yurituvchi subyektlar vujudga kelishining nazariy asoslari, amaliy ahamiyati keng yoritilgan, shuningdek, -"Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda birinchi o'rinda mulkiy munosabatlar bo'lib bunda barcha ishlab chiqarish va boshqa sohalarda tovar- pul munosabatlarining asosiy negizi sifatida qaraladi". Bizga ma'lumki, Respublikamizdagi fermer xo'jaliklari qishloq xo'jalik mahsulotlarini, jumladan chorvachilik mahsulotlarining salmoqli qismini ishlab chiqarmoqdalar, eng muhimi esa bu mahsulotlar sifati yaxshi bo'lishi bilan birga barcha chorva mollarining mahsuldorligining oshishiga erishmoqdalar.

Ammo, bu shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarining barcha imkoniyatlardan to'liq fodalana olmayapti. Bunda moddiy, ma'naviy hamda intellektual zaxiralar to'liq ishlatilmasdan, olinayotgan natija bozor iqtisodiyotini samarali ishlashga to'liq imkoniyat yaratganicha yo'q. Bunda ko'pgina muammolar o'z yechimini kutmoqda.

10. Xakimov R. O'zbekiston Respublikasi chorvachilik mahsulotlari bozori va tarmoqda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'nalishlari. -T., 2001.

Kitobda Respublikamiz qishloq xo'jaligi tarmog'ida olib borilgan iqtisodiy islohotlarning natijalari Respublikada chorvachilik mahsulotlari bozorining shakllanishi va amal qilishning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan. Shuningdek, chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etishning bozor shakllari va ularning imkoniyatlarini yuksaltirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Monografiyada chorvachilik sohasida ozuqa bazasini mustaxkamlashning iqtisodiy muammolariga, uning mahsulotlarini qayta ishlash va sotish tizimlarini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilganligi e'tiborimizni jalb etadi.

Kitobda «...-Chorvachilikning iqtisodiy samaradorlik darajasini oshirish ko'plab omillarga bog'liq. Ularning ichida eng asosiysi yem- xashak xarajatlaridir» deb alohida bob shaklida ma'lumotlar asosida ushbu masalalar va ularning yechimlari yoritilib berilgan.

Shu bilan birga monografiyada «Respublikada qoramolchilikning istiqboli 300 va undan ko'p bosh mol saqlaydigan yirik fermalar xo'jaliklarida

qoramolchilikni 35-40 bosh miqdorida ushlash maqsadga muvofiqdir» muallif o'z takliflarini bergan.

Kitobning II bobida shirkat xo'jaliklari, dehqon – fermer xo'jaliklarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish muammolariga bag'ishlangan alohida – alohida bo'limlar keltirilgan. Jumladan, shirkatlarda mulkka egalik qilish masalasi; chorvachilik mahsulotlari tannarxining yuqori bo'lib ketish sabablari; chorva mollarini yem- xashak va omuxta yem bilan ta'minlash masalasi; shirkat xo'jaliklarida oilaviy pudrat tamoillariga asoslangan chorvachilik fermalarini tashkil etish zarurati; chorvachilikda mehnatni tashkil etish va rag'batlantirish tizimlarni rivojlantirish muhimligi asoslab keltirilib berilgan.

11. Xoshimov M.Ye., Tansiboyev B.M. Qishloq xo'jalik chorva mollarini oziqlantirish. -T.: O'zbekiston, 2001.

Bu darslik akademik lisey va kasb xunar kollejlari uchun darslik bo'lib, chorva mollarini oziqlantirish ilmiy asoslari, ozuqalar va yem xashak turlari, ulardagi tuyimli moddalar nisbati va shuningdek xar xil turdagi chorva mollari uchun ratsion tuzish, ularni qo'llash usullari bayon etilgan. Bu kitob tushunarli tilda sodda yozilgan va ko'p materiallarni o'zida jamlangandir.

12. Xamraqulov R., Kariboyev K. Qishloq xo'jalik hayvonlarini oziqlantirish. - T., 2002.

O'quv qo'llanma Oliy ta'limda "Zootexniya" va "Veterinariya" yo'nalishlarida darslik sifatida tavsiya etilgan. Bu kitobda chorva mollarini oziqlantirishning axamiyati uning mahsulot yetishtirishdagi o'rni, ozuqa turlari, ularning tuyimliliigi, tarkibi to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Ularning xazm bo'lish va tuyimliliigini baholash masalalari ko'rilgan. Ozuqa xaqida umumiy tushunchalar, ozuqa turlari va ular tarkibidagi tuyimli moddalarning tarkibi va miqdorlari keltirilgan. Shuningdek hayvonlarni norma asosida oziqlantirish, turli chorva mollari uchun oziqlantirish ratsionini tuzish masalalari qaralgan.

Manbalarni – Chorvachilikni rivojlantirish bo'yicha Prezidentimiz, Hukumatimizning qarorlari, qabul qilingan me'yoriy xujjatlarni, chorva mollarini oziqlantirish va kunlik ratsion to'g'risidagi adabiyotlar va matematik

modellash tirish va axborot-kommunikasiya texnologiyalariga doir materiallarni o'rgandik va ulardan bitiruv malakaviy ishni tayyorlashda foydalandik.

2.PASTDARG'OM TUMANI TABIIY-IQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA CHORVA MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISHNING TAHLILI

2.1.Pastdarg'om tumani tabiiy-geografik tasnifi

Pastdarg'om tumani Samarqand viloyatining katta va ilg'or tumanlaridan biri bo'lib, u 1926 yil 29 sentyabrda tashkil etilgan. Tuman markazi Juma shahri hisoblanadi. Juma shahri Samarqand shaxrining g'arbiy tamonida joylashgan bo'lib, undan 24 km o'zoqlikda joylashgan.

Pastdarg'om tumani Samarqand shahriga yaqin bo'lib, Ishtixon, Oqdaryo, Samarqand, Nurobod va Kattaqo'rg'on tumanlari bilan chegaradosh. Juma shahridan tashqari yana bir shaxarcha Charxin shaxarchasidir. Undan tashqari 2009 yilda 11 yangi shaharchalar tashkil etildi. Ular Chortut, O'rta charxin, Balhiyon, Go'zalkent, Nayman, Jag'alboyli, Mehnat, Hindiboyi, Agron, Iskandari, Saribosh shaharchalaridir.

Mahalla fuqarolar yig'inlari soni 87 ta va shundan shahar mahallalar soni 14 ta. Qishloq fuqarolar yig'inlari soni 13 ta va qishloq aholi punktlari 151 tadan iboratdir. Tumanda 2014 yil 1 yanvar holatida 341 211 kishi yashaydi, 2013 yil holatiga nisbatan 11,8% ga ko'paygan. 2013 yil 1 yanvar holati bo'yicha jami aholi soni 305 ming 134 kishidan iborat. Shundan shahar joylarda 85133 kishi bo'lib uning 42 696 tasi erkaklar va 42437 tasi ayollarni tashkil etadi. Qishloq joylarda 220 001 kishi yashaydi, uning 109554 kishisi erkaklar va 110447 kishi ayollardan iborat. Tumanda mehnat resurslari 161 400 kishidan iborat. O'rtacha band aholining soni 100 200 kishidan iboratdir. Shundan 93900 kishi kichik tadbirkorlik subyektlarida ishlaydi. Kichik korxonalarda esa 3000 kishi ishlaydi. Mikrofermalarda 36800 kishi ishlaydi. O'rtacha oylik ish xaqi 887626,4 so'mdan iboratdir. Juma shahrida 21366 kishi va Charxin shaharchasida 10666 kishi yashaydi. Arabxona QFYsida 17293 kishi, Bolatoshda 8588, Sariboshda 20154, Po'latchida 17911, Namunada 5351, Sanchiqulda 25875, Torariqda 31883, Xamzaobodda 12448, Go'zalkentda 14187, Chimboyda 21222, Anxorda 13908 va

Beshqaxramon QFY da 20510 nafar aholi istiqomat qiladi.. 2013 yil 1 yanvar holatida shaxarda ayollar erkaklarga nisbatan 259 nafarga kam bo'lsa, qishloq joylarida esa ayollar erkaklarga nisbatan 893 nafarga ko'p yashaydi

Aholining mexanik xarakati bo'yicha , 2011 yil va 2012 yillarda mos ravishda o'rtacha yillik kelganlar 300 kishi, 1100 kishi, va ketganlar 900 kishi, 2500 kishini tashkil etadi va mexanik xarakat 2011 yilda -600 kishini, 2012 yilda -1400 kishini tashkil etagan. Tabiiy xarakat bo'yicha esa o'rtacha yillik to'g'ilish 2011 yilda 7100 kishini tashkil etgan bo'lsa 2012 yilda 24100 nafarni tashkil etgan. Vafot etganlar 2011 yilda 1300 kishini tashkil etgan bo'lsa 2012 yilda 4400 kishini tashkil etgan. Tumanda tabiiy xarakat 2011 yilda +5800 nafarni va 2012 yilda +19700 nafarni tashkil etgan.

Tumanda sanoat mahsulotlari 106,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2011 yilga nisbatan 112,6% ga ko'paygan. 2012 yilda xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish 30,7 mlrd so'm bo'lib, 2011 yilga nisbatan 122,6% ni tashkil etadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 287,6 mlrd. so'mni tashkil etib o'tgan yilga nisbatan 106,7% ga ko'paygan. Tumanda 2013 yil 1 yanvar holatida jami xo'jalik yurituvchi subyektlar soni 5190 ta, shundan yirik subyektlar 279 ta, kichik subyektlar 471 ta, mikrofermalar 4438 tadan iborat. Qishloq va urmon xo'jaligi tarmog'idagi subyektlar umumiy soni 3871 ta bo'lib, uning aksariyati ya'ni 3484 tasi mikrofermalardir. 1069 ta kichik tadbirkorlik subyekti mavjud bo'lib, shundan 210 tasi qishloq va suv xo'jaligi tarmog'iga tegishli.

Tumanda 58 ta maktabgacha tarbiya muassasalari bo'lib ularda 3815 nafar bolalar tarbiya olmoqda va 481 nafar tarbiyachilar ishlamoqda. 2012/2013 o'quv yilida 124 ta umumta'lim maktablari mavjud bo'lib, ularning 2 tasi maxsus internetlar. Ularda 47434 o'quvchilarga 5602 nafar o'qituvchilar bilim bermoqdalar. Pastdarg'om tumanida 14 ta kasb-xunar kolleji faoliyat ko'rsatib, ularda 15674 nafar talabalar bilim olmoqda, ularda 906 nafar tarbiyachilar ishlab kelayapti. Ushbu bilim uchoqlari zamonoviy binolarda joylashgan bo'lib, yangi o'quv-kurgazmali jixozlar dogsh9bilan taminlangan.

Tumanda 4 ta shifoxona bo'lib, bir kecha-kunduzda kasallar o'rinlari soni 646 o'rinni tashkil etadi. Jami vrachlik ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni 53 ta bo'lib 1 smenada 3450 nafar qabul qilish quvvatiga ega. Tumanda mavjud kutubxonalar, oromgoxlar, bozorlar, uyingoxlar, maishiy-xizmat ko'rsatish shahobchalari, sartaroshxona, xammom, oshxonalar, dukanlar aholiga xizmat ko'rsatib kelmoqda. Kutubxonalar soni 22 ta bo'lib, ularda 162600 nusxa axborot resurslari mavjud.

Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish ishlari yaxshi yo'lga quyilgan. Bo'nday shaxobchalar jami 178 ta. Tumanda aholi turmush darajasi uy-joylar bilan, gaz va ichimlik suvi bilan asosan yaxshi ta'minlangan. Bir kishi hisobiga 12,6 m kv uy-joy to'g'ri keladi. Tabiiy gaz bilan ta'minlanganligi 81,8% ni, ichimlik suvi bilan ta'minlanganligi 87,2% ni tashkil etadi. Qishloq aholisiga namunaviy tipdagi qurilgan uy-joylar topshirilmoqda. 2012 yilda 15323 kv m yoki 100 dona namunaviy tipdagi uy-joylar qurilgan. Aholiga transport xizmati ham ko'rsatilmoqda. Tumanda jami 17381 ta avtotransportlar bo'lib, shundan 16236 tasi yengil mashinalar, jumladan 3124 ta damas. Tumanda 21 ta avtobus, 105 ta mikroavtobus, 1008 ta yuk mashinalari va 11 ta maxsus avtotransportlar mavjud.

Tuman mintaqasidan katta magistral avtoyul va temiryo'l o'tgan. Bular orqali Samarqand shahariga axoli o'z yetishtirgan dehqonchilik maxsulotlarini shu yul orqali olib borib sotish imkoniyatlari yaratilgan.

Tumanning iqlimi yassi tekisliklarga xos mutaddil bo'lib, qishda nisbatan sovuq va yozda nisbatan issiq bo'ladi. Yog'ingarchilik nisbatan baxor faslida ko'p bo'ladi. Asosan Darg'om, Eski Angor va Qoradaryo kanallaridan ekinlar sug'oriladi.

Tumanda fermer xo'jaliklar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib keyingi yilda mayda fermerlarni qushib yiriklashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Tumanda 896 ta fermer xo'jaliklari va 250 ta dehqon xo'jaliklari faoliyat ko'rsatmoqda, Shundan 77 ta chorvachilik fermer xo'jaliklaridir. Chorvachilik tumanda rivojlanib, asosan yirik shoxli mollar, qo'y va echkilar. parranda va otlar dehqon xo'jaliklarda boqiladi.

2.2. Pastdarg'om tumanida qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish iqtisodiy ko'rsatkichlari

Pastdarg'om Samarqand viloyatining eng katta tumanlaridan biridir. Tumanda sanoat, qurilish, transport va boshqa sohalardan tashqari asosan qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishga katta ahamiyat beriladi. Tumanida chorva mahsulotlari ishlab chiqarishga e'tibor beriladi. 2013 yilda go'sht ishlab chiqarish rejadagi 309 tonna o'rniga 708 tonna ishlab chiqilgan, ya'ni reja 229,1% ga bajarilgan. 2012 yilda esa rejadagi 264 tonna o'rniga 285 tonna gusht yetishtirilgan, 2011 yilda esa 239 tonna o'rniga 253 tonna yetishtirilgan. Demak tumanda keyingi 3-4 yillarda go'sht yetishtirish rejasi ortig'i bilan bajarilib kelinmoqda. Shuni takidlash kerakki oldingi yillarda go'sht yetishtirish rejasi yuqori bo'lib, ammo surinkasiga bajarilmay kelinmoqda edi. 2013 yilda viloyat bo'yicha yetishtirilgan go'sht miqdorining (13539 tonna) 5,2% ni tashkil etadi, vaxolanki 2012 yilda 2,5% ini tashkil etgan xalos. Go'sht yetishtirish uchun ketgan xarajatlar 2013 yilda 5237 mln so'mni, 2012 yilda esa 1648 mln so'mni, 2011 yilda esa 1440 mln so'mni tashkil etgan. Daromad esa 2013 yilda 5806 mln so'mni, 2012 yilda 1827 mln so'mni, 2011 yilda esa 1596 mln so'mni tashkil etgan. Go'sht yetishtirishdan 2013 yilda 156 mln so'm foyda olingan bo'lsa, 2012 yilda 179 mln so'm zarar ko'rgan, 2011 yilda esa 156 mln so'm foyda ko'rgan. Rentabellik esa 2013 yilda 10,9% ni tashkil etgan, 2012 yilda 10,9% ni, 2011 yilda 10,9% ni tashkil etgan. 2013 yilda 1 tonna go'shtning tannarxi 7396 ming so'mni tashkil etgan, 2012 yilda 5773 ming so'mni, 2011 yilda esa 5683 ming so'mni tashkil etgan.

Ushbu jadvaldan ko'rinadiki 2013 qishloq xo'jalik yilida tumanda chorvachilik sohasiga katta e'tibor berilgan.

Tumanda 2013 yilda rejadagi 4102 tonna o'rniga 4580 tonna sut ishlab chiqarilgan, ya'ni reja 111,6% ga bajarilgan. 2012 yilda esa rejadagi 3732 tonna o'rniga 3850 tonna sut yetishtirilgan, ya'ni reja 103,1% ga bajarilgan. 2011 yilda

esa 2618 tonna o'rniga 2762 tonna sut yetishtirilgan, ya'ni reja 105,5% ga bajarilgan. Bundan ko'rinadiki tumanda sut ishlab chiqarish rejasi keyingi yillarda

2.2.1-jadval

Pastdarg'om tumanida go'sht yetishtirishning iqtisodiy ko'rsatkichlari (2011-2013 yy.)*

№	Ko'rsatkichlar	Yillar						2013 yil 2011 yilga nisbatan, +,-
		2011		2012		2013		
		Reja	Xaqiqatda	Reja	Xaqiqatda	Reja	Xaqiqatda	
1	Ishlab chiqarish, t	239	253	264	285	309	708	279,8
2	Xarajat, mln so'm	1354	1440	1497	1648	2120	5237	363,7
3	Daromad, mln so'm	1470	1596	1625	1827	2302	5806	363,7
4	Foyda, mln so'm	116	156	128	179	182	569	364,7
5	Rentabellik,%	8,6	10,9	8,6	10,9	8,6	10,9	-
6	1tonna go'sht tannarxi, ming so'm	5664	5683	5664	5773	6861	7396	130,1
7	1tonna go'sht sotish bahosi, ming so'm	6150	6300	6150	6400	7450	8200	130,1

*Manba: Viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi ma'lumotlaridan

bajarilib kelinmoqda. Ma'lumki tumanda 2013 yilda jami 65184 bosh sigirlar mavjud. Tumanda 2013 yilda rejadagi 1732 ming dona o'rniga 2950 ming dona tuxum ishlab chiqarilgan, ya'ni reja 170,3% ga bajarilgan. 2012 yilda esa rejadagi 1365 ming dona o'rniga 1609 ming dona tuxum yetishtirilgan, ya'ni reja 117,8% ga bajarilgan. 2011 yilda esa 850 ming dona o'rniga 965 ming dona tuxum yetishtirilgan, ya'ni reja salkam 1,13 barobar ortiqcha bajarilgan. 2013 yilda tuxum yetishtirish 70% dan ko'pga oshgan, demak tumanda parrandachilikka katta e'tibor qaratilmoqda. Tumanda 2013 yilda rejada ko'zlangan 209,7 tonna pilla topshirilgan, reja 100% ga bajarilgan va 54 mln so'm foyda olingan. 2011 yilda esa rejadagi 209,7 tonna o'rniga 209,7 tonna olingan, reja 100% ga bajarilgan va 54 mln so'm foyda ko'rgan. 2011 yilda esa rejadagi 209,7 tonna o'rniga 217 tonna xosil olingan va reja 103,5% ga bajarilgan, ammo bu sohadan shu yili 439 mln so'm foyda ko'rilgan. Ushbu raqamlardan ko'rinadiki keyingi 2 yilda pilla rejasi tumanda zo'rg'a bajarilib kelinmoqda. Tumanda 2013 shuningdek yilda 49,5 tonna asal yetishtirilgan va 111 tonna baliq gushti, 19,2 tonna jun yetishtirilgan.

Tumanda chorvachilik bo'yicha xamma qilingan xarajatlar 2013 yilda 12527 mln so'mni tashkil etgan. 2012 yilda esa 6022 mln so'mni tashkil etgan. Chorvachilik bo'yicha daromad esa 2013 yilda 14099 mln so'mni, 2012 yilda esa 6682 mln so'mni tashkil etgan. Foyda 2013 yilda 1571,6 mln so'm, 2012 yilda 660 mln so'm bo'lgan. Rentabellik 2013 yilda 12,5%, 2012 yilda esa 11,0% ni tashkil etadi. Ushbu ma'lumotlardan ko'rinadiki Pastdarg'om tumanida chorva maxsulotlari yetishtirish viloyat chorva mahsulotlaridan olingan daromadning 3,8% dan ko'progini tashkil etadi.

Pastdargom tumanda dehqonchilik sohasiga katta e'tibor beriladi. Endi tumanda dehqonchilik mahsulotlari yetishtirish holatiga to'xtalib o'tamiz. Pastdarg'om tumani qishloq xo'jalik korxonalarida g'alla yetishtirishga xam katta e'tibor berilmokda. Tumanda 2013 yilda 18741 gektar yerga g'alla ekish rejalashtirilgan bo'lib, xaqiqatda esa 17741 gektar maydonga ekilgan. Ya'ni 1000 gektarga ekilmay qolgan. Ushbu ko'rsatkich viloyat bo'yicha g'alla maydonining (131127 ga) 13,5 % ni tashkil etadi. G'alla maydoni tumanda 2012 yilda ham rejadagi 19930 gektar o'rniga 18415 ming gektarni tashkil etgan ya'ni joriy yilda o'zgarmagan. 2011 yilda esa rejadagi 19330 gektar o'rniga 18415 gektarni tashkil etgan, ya'ni 915 gektar ekilmay qolgan. G'alla maydoni tumanda 2013 yilda 2011 va 2012 yillarga nisbatan 674 gektarga qisqargan, ya'ni 3,7% ga kamaygan. Bizning fikrimizcha jahon iqtisodiy axborot vositalarining xabarlariga ko'ra g'alla mahsulotlariga bo'lgan talab va uning narxi yildan yilga o'sib bormoqda. Albatta buning o'z sabablari mavjud. Shularni e'tiborga olgan holda g'allaga ajratilgan yer maydonlarini kengaytirib undan yuqori va sifatli mahsulot olish chora-tadbirlarini ko'rish talab etiladi. Albatta g'allaning xosildorlik ko'rsatkichlari eng asosiy omillardan biri hisoblanadi. Tumanda 2013 yilda xar gektardan 47,2 sentnerdan olish mo'ljallangan bo'lib, xaqiqatda esa 64,5 sentnerdan hosil olindi. Demak xar bir gektardan 1730 kg dan ziyod xosil olindi. Natijada rejalashtirilgan 88501 tonna o'rniga 114510 tonna g'alla hosili olindi. Demak rejaga nisbatan 29,4% yoki 26009 tonna ko'p hosil olingan. Demak tuman bo'yicha hosildorlik viloyat o'rtacha hosildorligigi (53,5 s/ga) ga nisbatan 12,0% yuqori darajada, viloyat

yalpi g'alla hosilining(701399 t) 16,3% ni tashkil etadi. G'alla bo'yicha tumanda moliyaviy ko'rsatkichlar quyidagicha: 2013 yilda tumanda g'alla bo'yicha xarajatlar rejada 33082 mln. so'm bo'lsa, xaqiqatda esa 38842 mln. so'mni tashkil etdi, ya'ni ko'zlanganga nisbatan 5761 mln. ko'p sarflandi. Tumanda g'alla bo'yicha daromad esa, 37170 mln. rejalashtirilgan bo'lsa xaqiqatda esa 47522 mln. so'mni tashkil etgan, ya'ni rejaga nisbatan 27,8% ga o'sgan. Viloyat bo'yicha g'alla daromadining (288288 mln so'm) 16,5% ni tashkil etadi. 2011 yilda g'alladan xarajat 26565 mln so'mni tashkil etgan, daromad esa 36293 mln so'mni tashkil etgan. 2012 yilda esa xarajat 37134 mln so'mni, daromad esa 42413 mln so'mni tashkil etgan. Demak 2013 yilda g'alla bo'yicha xarajatlar 2011 yilga nisbatan 1,46 barobarga oshgan, 2012 yilga nisbatan esa 1,05 barobarga oshgan. Rentabellik esa 2011 yilda 36,6% ni, 2012 yilda 14,2% ni va 2013 yilda 22,3% ni tashkil etgan.

2.2.2-jadval

Pastdarg'om tumanida g'alla yetishtirishning iqtisodiy ko'rsatkichlari (2011-2013 yy.)*

№	Ko'rsatkichlar	Yillar						2013 yil 2011 yilga nisbatan, %
		2011		2012		2013		
		Reja	Xaqiqatda	Reja	Xaqiqatda	Reja	Xaqiqatda	
1.	Maydon, ming ga	19,33	18,41	19,33	18,41	18,741	17,741	96,4
2.	Hosildorlik, s/ga	48,2	59,7	48,2	63,1	47,2	64,5	108
3.	Yalpi hosil, tonna	93075	109980	93075	116200	88501	114510	104,1
4.	Jami xarajat, mln so'm	27109	26566	28993	37134	33082	38842	146,2
5.	Jami daromad, mln so'm	28853	36293	32576	42413	37170	47522	130,9
6.	Jami foyda, mln so'm	1745	9727	3583	5279	4089	8680	89,2
7.	Rentabellik,%	6,4	36,6	12,4	14,2	12,4	22,3	-14,3band
8.	1ga. Qilingan xarajat, ming so'm	1402	1443	1500	2016	1765	2189	151,7
9.	1ga. Olinadigan daromad, ming so'm	1493	1971	1685	2303	1983	2679	135,9
10.	1ga. Olinadigan foyda, ming so'm	90	528	185	287	218	489	92,6
11.	1 t.tannarxi, ming	291	242	312	320	374	339	140

	so'm							
12.	1tn. Sotish baxosi, ming s.	310	330	350	365	420	415	125,7

*Manba: Viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi ma'lumotlaridan

Pastdarg'om tumanida 2013 yilda rejadagi 20812 gektarda paxta yetishtirilgan, hosildorlik o'rtacha rejadagi 22,7 sentner o'rniga 21,6 s/ga ni tashkil etgan va rejadag 47231 tonna o'rniga 44942 tonna hosil olingan. Paxta yetishtirish uchun jami xarajatlar rejadagi 42103 mln so'm o'rniga 39064 mln so'mni tashkil etgan. Daromad esa rejadagi 44208 mln so'm o'rniga 42075 mln so'mni tashkil etgan va rejadagi 2105 mln so'm o'rniga 3011 mln so'm foyda olingan xalos. Rentabellik 7,7% ni tashkil etgan. Utgan 2012 yilga nisbatan ekin maydoni 674 gektarga ko'paygan bo'lsada, hosildorlik 1,3 s.ga ga kamaygan va natijada paxta ishlab chiqarish ham 1090 tonnaga kamaygan. Tumanda 2013 yilda rejadagi 75 gektar o'rniga 45 gektarga poliz yetishtirilgan va gektaridan 107 sentnerdan hosil olingan. Umumiy rejadagi 1773 tonna o'rniga 480 tonna hosil olingan xalos.. Poliz yetishtirish uchun jami xarajatlar 132 mln so'mni tashkil etgan va daromad esa 173 mln so'mni tashkil etib, 41 mln so'm foyda olingan. Rentabellik 31% ni tashkil etgan. Pastdarg'om tumanida 2013 yilda 2179 gektarda sabzavot yetishtirilgan, hosildorlik o'rtacha 216,5 s/ga ni tashkil etgan. Va 47191 tonna hosil olingan. Tumanda sabzavot yetishtirish uchun jami xarajatlar 11533 mln so'mni tashkil etgan va daromad esa 12810 mln so'mni tashkil etib, 3804 mln so'm foyda olingan. Rentabellik 33,0% ni tashkil etgan. Tumanda 2013 yilda 125 gektarda kartoshka yetishtirilgan, xosildorlik o'rtacha 189,6 s/ga ni tashkil etgan va 2370 tonna hosil olingan. Tumanda kartoshka yetishtirish uchun jami xarajatlar 1298 mln so'mni tashkil etgan va daromad esa 1730 mln so'mni tashkil etib. 433 mln so'm foyda olingan. Rentabellik 33,3% ni tashkil etgan. Ushbu raqamlardan ko'rinadiki 2012 yilga nisbatan 2013 yilda kartoshka va sabzavot yetishtirish tumanda rivojlanmoqda.. Tumanda 2013 yilda ham 1242 gektarda meva yetishtirilgan, xosildorlik o'rtacha 74,4 s/ga ni tashkil etgan, va 9235 tonna hosil olingan. Tumanda meva yetishtirish uchun jami xarajatlar 5064 mln so'mni tashkil etgan va daromad esa 6695 mln so'mni tashkil etib, 1631 mln so'm foyda olingan.

Rentabellik 32,2% ni tashkil etgan. Meva bo'yicha hosildorlik o'tgan yilga nisbatan ancha tushib ketgan. Tumanida 2012 yilda 1073 gektarda xosil beradigan uzum yetishtirilgan, xosildorlik o'rtacha o'tgan yilgi 117,1 s/ga o'rniga 71,1 s/ga ni tashkil etgan va 7631 tonna hosil olingan. Tumanda uzum yetishtirish uchun jami xarajatlar 5854 mln so'mni tashkil etgan va daromad esa 8020 mln so'mni tashkil etib, 2165 mln so'm foyda olingan. Rentabellik 37,0% ni tashkil etgan. Umuman tumanda jami o'simchilik bo'yicha qilingan xarajatlar 103109 mln so'mni tashkil etib, daromad esa 123140 mln so'mni tashkil etgan. Foyda 20031 mln so'm bo'lgan, ya'ni rejadan 6277 mln so'm ko'p foyda olingan. 2012 yilga nisbatan $20031 - 12488 = 7543$ mln so'm ko'p foyda olingan.

Pastdarg'om tumanida o'simchilik va chorvachilik bo'yicha 2013 yilda rejada 111583 mln. so'm xarajat belgilangan bo'lsa, xaqiqatda esa 115636 mln so'mni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha farq 4053 mln so'mni tashkil etadi, demak rejaga nisbatan 3,6% ko'p sarflangan. Xarajatlarning salmog'i viloyat umumiy xarajatlarning (1180569 mln so'm) 9,8 % dan ko'progini tashkil etadi. 2012 yilda bu ko'rsatkich bo'yicha reja 89739 mln so'm, xaqiqatda esa 100961 mln so'mni tashkil etgan. Demak 2013 yilda bu ko'rsatkich bo'yicha reja 124,3% ga va xaqiqatdagi ko'rsatkich 1,15 barobarga oshgan. O'simchilik va chorvachilik bo'yicha olingan daromadlar 126053 mln. so'm belgilangan bo'lsa, xaqiqatda esa 137239 mln so'mni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha farq 11187 mln so'mni tashkil etadi, demak rejaga nisbatan 8,9% ko'p daromat olingan. Daromadning salmog'i viloyat umumiy daromadining (1459583 mln so'm) 9,4% ni tashkil etadi. 2012 yilda bu ko'rsatkich bo'yicha reja 100829 mln so'm, xaqiqatda esa 114108 mln so'mni tashkil etgan. Demak 2013 yilda daromad ko'rsatkichlari bo'yicha reja 125,0% ga va xaqiqatdagi ko'rsatkich 120,2 % ga oshgan. Tumanda o'simchilik va chorvachilik bo'yicha rentabellik darajasi 13,0% rejalashtirilgan bo'lib, xaqiqatda esa 18,7% ni tashkil etgan bu ko'rsatkich bo'yicha farq +5,7% ni tashkil etadi. Viloyat bo'yicha o'rtacha rentabellikka (23,6%) nisbatan 4,9% past. Jami foyda 21603 mln so'mni tashkil etadi.

Umuman olganda tumanda ishni to'g'ri tashkil etilganligi sababli 2013 yilga kelib o'simchilik va chorvachilikda yaxshi natijalarga erishila boshlandi.

2.3. Chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish ko'rsatkichlari tahlili

Biz ushbu bitiruv malakaviy ishimizda Respublikamizda, Samarqand viloyatida va obyekt sifatida qaralayotgan Pstdarg'om tumanida chorvachilikning keyingi yillardagi rivojlanish tendensiyalariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Axolining ehtiyojlarini , jumladan chorva mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirish maqsadida Respublikamizda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishga katta e'tibor berilmoqda. Dehqonchilik bilan birga chorvachilik sohasi ham yildan-yilga rivojlanib bormoqda. Bu sohada erishilayotgan yutuqlarimizga asosan hukumatimizning katta e'tibor berayotganligi, chorvachilik xo'jaliklariga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatayotganligi va Respublikamizda chorvachilikni rivojlantirish uchun yetarli shart-sharoitlar mavjudligidandir.

Respublikamizda yildan yilga chorva mollarining tuyoq sonlari va chorva mahsulotlari yetishtirish ko'payib bormoqda. Quyida Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining rasmiy veb-sayti va Respublika statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida chorachilik rivojlanishi holatini ko'rib chiqamiz. Joriy 2014 yilning birinchi choragi yakuni bilan go'sht ishlab chiqarish 378,6 ming tonnaga (106,0%), sut ishlab chiqarish 1 mln. 408 ming tonnaga (106,7%), tuxum ishlab chiqarish 978,4 mln. donaga (113,5%), baliq ishlab chiqarish 9 ming tonnaga (123%) yetkazildi.

Vaholanki, go'sht yetishtirish 2012 yilda jami 916,2 ming tonnani tashkil etib 2 yilda 12,15% ga ko'paygan. Shuning 94,5% i dehqon xo'jaliklarida yetishtirilgan. Sut yetishtirish 2012 yil 1 yanvar holatida 6766,2 ming tonnani tashkil etib, keyingi 2 yilda 16,6% ga ko'paygan. Jami ishlab chiqarilgan sut miqdorining 96% i dehqon xo'jaligida yetishtirilgan. Boshqa tur mahsulotlarda ham shu holatni ko'zatish mumkin.

2014 yilda qoramolchilikni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan Dasturlar doirasida: qoramollar sonini 11 mln.145 ming boshga, shundan sigirlar sonini 4

mln. 120 ming boshga yetkazish; chetdan 8 ming boshdan ortiq naslli qoramollar olib kelish; 2 mln. 100 ming bosh sigirlarni sun'iy urug'lantirish belgilangan. 2012 yilda qoramollar soni 9 mln. 642 ming boshni tashkil etgan, shundan sigirlar soni 3 mln.848 ming bosh bo'lgan.

2014 yilga kelib qoramolchilik bo'yicha 532 ta kichik qoramolchilik xo'jaliklari tashkil etildi va ularda 14 ming 64 bosh qoramol parvarish qilinmoqda. Buning uchun jami 84 mlrd. 794 mln. so'mlik mablag' o'zlashtirildi. Qoramolchilikni rivojlantirishda naslchilikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Joriy yilda xorijiy davlatlardan jami 31 bosh naslli qoramollar olib kelinib, ularning umumiy soni 36 ming 621 boshni tashkil etadi. Bugungacha chetdan keltirilgan naslli mollardan 104,2 ming boshdan ortiq naslli buzoqlar olindi va ularning umumiy soni 148,8 ming boshga yetkazildi

Joriy yilning birinchi choragida chorva mollari ozuqa bazasini mustahkamlash maqsadida barcha toifa xo'jaliklar tomonidan 6,7 ming gektar asosiy maydonlarga bahorgi beda, 915 gektarga silos uchun makkajo'xori va 1644 gektar maydonga xashaki lavlagi ekilishi ta'minlandi. Shundan, chorvachilikka ixtisoslashgan xo'jaliklar tomonidan 5,9 ming gektar yangi beda, 647 gektar silos uchun makkajo'xori va 1,3 ming gektar xashaki lavlagi ekildi. Bundan tashqari qoramolchilikka ixtisoslashgan naslchilik fermer xo'jaliklariga 53 dona zamonaviy sut sog'ish uskunasi o'rnatildi. Joriy yilda 319 ta baliqchilik va 195 ta asalarichilik xo'jaliklari tashkil etildi. Ularning soni baliqchilikda 2011 taga va asalarichilikda 9076 taga yetkazildi. Respublika bo'yicha tabiiy va sun'iy havzalarga 26,7 mln dona chovaqlar bilan baliqlantirildi. Buning uchun tijorat banklari tomonidan 3 mlrd. so'mdan ortiq kredit mablag'lari ajratildi.

Natijada joriy yilning o'tgan davrida qoramolchilikda 1829 ta, parrandachilikda 1606 ta, baliqchilikda 1051 ta va asalarichilikda 632 ta yangi ish o'rinlari yaratilib, ularning soni 5118 taga yetkazildi. (Ma'lumotlar Qishloq va suv xo'jalik vazirlig veb-saytidan olindi).

Respublika statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra chorva mollarining barcha turlari xam asosan dehqon fermer xo'jaliklarida boqiladi. Jumladan yirik

shoxli mollarning 93,7% i, sigirlarning 94,7% i, chuchqalarning 79,5% i, Qo'y va echkilarning 80,5% i, parrandalarning 60,2% i va otlarning 83,5% i dehqon xo'jaliklariga to'g'ri keladi. Chorva mollarning o'sish surati barcha turdagi mollar bo'yicha ham yuqoriligi ko'rinib turibdi. Ayniqsa parrandalar soni barcha toifadagi xo'jaliklarda ham 2 yilda 1,5 barobargacha ko'paygan.

Samarqand viloyatida ham keyingi yillarda chorvachilikka katta e'tibor berilmoqda. Keyingi yillarda erishilgan yutuqlarga to'xtalib o'tamiz. Viloyat rasmiy veb-saytida keltirilganlariga asosan:

Viloyat qishloq xo'jaligida ham muayyan yutuqlarga erishildi. Jumladan, barcha toifadagi xo'jaliklarda don ishlab chiqarish hajmi 838,6 ming tonnani (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 104,2 foiz), kartoshka 480,9 ming tonnani (107 foiz), sabzavot 1350,8 ming tonnani (107,8 foiz), poliz 89,7 ming tonnani (108,5 foiz), meva 300,7 ming tonnani (110 foiz), uzum 468,1 ming tonnani (111,1 foiz), go'sht 214,3 ming tonnani (105,1 foiz), sut 994,4 ming tonnani (106,9 foiz), tuxum 834,3 mln donani (114,3 foiz), asal 604,7 tonnani (182,5 foiz), baliq 1124,2 tonnani (189,2 foiz) tashkil qildi.

Viloyat hokimining 2012 yil 3 dekabrda "Viloyatda 2013 yilda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalarni tashkil qilish manzilli dasturi to'g'risida"gi qarorini bajarish yuzasidan yil yakuni bilan 24 ta: 5 ta go'sht, 10 ta sut mahsulotlarini qayta ishlash hamda 9 ta meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash korxonasi tashkil qilindi. Natijada 461 ta ish o'rinlari yaratildi 86 ta qoramolchilik, 55 ta parrandachilik, 56 ta baliqchilik va 61 ta asalarichilik xo'jaliklari to'liq tashkil etildi. Ushbu loyihalarning umumiy qiymati 30,2 mlrd so'mni tashkil etib, natijada 929 ta ish o'rni yaratildi.

Viloyat parrandachilik sohasida Respublikada birinchi o'rinda bo'lib, 36 ta parrandachilik korxonalari ishlamoqda. Parranda go'shti yetishtirish Samarqand qishloq xo'jalik institutida ham yo'lga qo'yilgan bo'lib, bayram kunlari xodimlarga qoramol va qo'y go'shtlari bilan birga arzon narxlarda tarqatildi.

Oxirgi ikki yil ichida viloyatda 265 gektar maydonda 96 ta baliqchilik fermer xo'jaliklari tashkil qilindi. Hozir yiliga 721 tonna baliq ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Bir yil davomida 84 ta baliqchilik fermer xo'jaliklari tashkil etildi.

Viloyatda 2013 yilda qoramollar bosh soni 1 331 907 boshga (2012 yilda 1 284 951 bosh, keyini yildagi o'sish 104% ni tashkil etgan), shulardan 1 263 743 boshi ya'ni 95% i dehqon xo'jaliklarida; shundan, sigirlar 2013 yilda 601 946 boshga (2012 yilda 588 144 bosh bulgan); qo'y va echkilar soni 1 940 924 boshga (2012 yilda esa 1 827 013 bosh bo'lgan), yillik o'sish 106% ni tashkil etgan; Cho'chqalar soni 2012 yilda 10147 bosh bo'lsa, 2013 yilda 10343 boshni tashkil etdi; otlar soni 2012 yilda 22113 bosh bo'lsa 2013 yilga kelib 22647 boshni tashkil etdi; parranda soni 2012 yilda 6 319 600 bosh bo'lsa, 2013 yilda 7 541 000 boshga, ya'ni 119%ga ko'paydi.

Viloyat qishloq xo'jaligida 2013 yilda oldingi yillarga nisbatan mahsulot ishlab chiqarishni oshirish maqsadida ishlar olib borildi va yil yakuni bilan sohada muayyan yutuqlarga erishildi. Jumladan, go'sht ishlab chiqarish 2012 yilda 203782,9 tonna bo'lsa, 2013 yilda esa 214254 tonnani tashkil etdi va o'sish 105,1%ni tashkil etdi, sut 2013 yilda 994389 tonnani tashkil etib, 2012 yilga nisbatan 106,9% ga ko'paygan., tuxum 834 277 ming donani tashkil etib, 2012 yilga nisbatan 114,3% ga o'sgan., baliq 2013 yilda 1124,1 tonnani tashkil etib, 2012 yilga nisbatan 189,2 % ni tashkil etgan va asal 203 yilda 604,7 tonnani tashkil etgan va 2012 yilga nisbatan 182,7% ga o'sgan. Viloyatda chorvachilik sohasining boshqa tarmoqlari bo'yicha ham katta yutuqlarga erishilgan.

Obyekt sifatida qaralayotgan Pastdarg'om tumani dehqon xo'jaliklaridaham chorvachilik sohasiga katta e'tibor berilmoqda. Chorva mollari tuyoq sonlari ko'paytirilmoqda va chorva mahsulot yetishtirish va uni qayta ishlashga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Quyida biz tumanda chorva mollari tarkibi va ularning keyingi 3 yildagi o'zgarishi xaqida ma'lumot keltiramiz.

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki tumanda keyingi 1 yilda yirik shoxli qoramollar soni 4,6 foizga oshgan va jami 148 476 boshni tashkil etgan. Yirik

shoxli mollar asosan dehqon xo'jaliklarida boqiladi, ya'ni 139 641 boshi va tumandagi umumiy bosh soniga nisbatan 94 % dan ko'prog'ini tashkil etadi. Sigirlar soni keyingi yilda 1794 boshga ko'payib bu 2,8% o'sishni tashkil etgan,

2.3.1.-jadval

Pastdarg'om tumanida chorva mollari va parrandalarning bosh soni (bosh, 2011-2013 yy.)*

Chorva mollari turlari	Xo'jalik toifalari	Yillar			2013 yil 2011 yilga nisbatan o'zgarishi %
		2011	2012	2013	
Yirik shoxli mollar	Fermer xo'jaligida	7460	7814	8230	105,3
	Dehqon xo'jaligida	114963	133648	139641	104,5
	Qishloq xo'jalik korxonalarida	463	494	605	122,5
	Tuman bo'yicha	122889	141956	148476	104,6
Shu j.: Sigirlar	Fermer xo'jaligida	1520	1765	1885	106,8
	Dehqon xo'jaligida	60517	61460	63078	102,6
	Qishloq xo'jalik korxonalarida	133	165	221	133,9
	Tuman bo'yicha	62170	63390	65184	102,8
Cho'chqalar	Fermer xo'jaligida	70	70	70	100
	Dehqon xo'jaligida	1799	1904	1950	102,4
	Qishloq xo'jalik korxonalarida	100	220	220	100
	Tuman bo'yicha	1969	2194		111,4
Qo'y va echkilar	Fermer xo'jaligida	3920	4335	4568	105,4
	Dehqon xo'jaligida	108041	121224	131830	108,7
	Qishloq xo'jalik korxonalarida	1062	127	1340	1055,1
	Tuman bo'yicha	113023	125796	137739	109,6
Parrandalar	Fermer xo'jaligida	13500	16794	20000	117,9
	Dehqon xo'jaligida	176221	232264	249000	107,4
	Qishloq xo'jalik korxonalarida	5205	10520	13	220,0
	Tuman bo'yicha	194926	259578	282000	108,6
Otlar	Fermer xo'jaligida	103	109	112	102,8
	Dehqon xo'jaligida	2353	2414	2504	103,7
	Qishloq xo'jalik korxonalarida	12	1	15	1500,0
	Tuman bo'yicha	2468	2524	2631	104,2
Asalari oilasi	Fermer xo'jaligida	1087	1594	2450	153,0
	Dehqon xo'jaligida	360	588	1010	172
	Qishloq xo'jalik korxonalarida	-	-	-	-
	Tuman bo'yicha	1447	2182	3460	159,2

*Manba: Pastdarg'om tumani Qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ma'lumotlaridan

jami soni 65184 ni tashkil etgan, shundan 63078 boshi dehqon xo'jaliklarida boqiladi. Jadvaldan ko'rinadiki keyingi yillarda tumanda parrandachilik vaasalarichilikni ko'paytirishga katta e'tibor berilmoqda. Pastdarg'om tumanida chorva mahsulotlari yetishtirish bo'yicha ma'lumotlarni quyidagi jadvalda keltiramiz.

2.3.2.-jadval

Pastdarg'om tumanida chorva mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari*

Chorva mahsulotlari turlari	Xo'jalik toifalari	Yillar			2013 yil 2011 yilga nisbatan o'zgarishi, %
		2011	2012	2013	
Go'sht	Fermer xo'jaligida	158,1	160,9	180	111,9
	Dehqon xo'jaligida	15481	16474	17142	104,1
	Qishloq xo'jalik korxonalarida	93	124,5	528	424,1
	Tuman bo'yicha	15732,1	16759,4	17850	106,5
Sut	Fermer xo'jaligida	2957,5	3634,3	4290	118,0
	Dehqon xo'jaligida	80604	89549	94441	105,5
	Qishloq xo'jalik korxonalarida	190	215,3	290	134,7
	Tuman bo'yicha	83731,5	93399,2	99021	106,0
Tuxum	Fermer xo'jaligida	1014	1519,4	1600	105,3
	Dehqon xo'jaligida	14968	20354	21767	106,9
	Qishloq xo'jalik korxonalarida	80	89	1349,5	1514,6
	Tuman bo'yicha	16062	21963	24716,5	112,5
Jun	Fermer xo'jaligida	6	7,1	8	112,7
	Dehqon xo'jaligida	231	237,6	241,6	101,7
	Qishloq xo'jalik korxonalarida	0,1	1,0	11,2	1120
	Tuman bo'yicha	237,1	245,7	260,8	106,13
Asal	Fermer xo'jaligida	11,0	14,5	28,5	196,6
	Dehqon xo'jaligida	8,6	9,9	21	212,1
	Qishloq xo'jalik korxonalarida	-	-		-
	Tuman bo'yicha	19,6	24,4	49,5	202,9
Baliq	Fermer xo'jaligida	20,0	42,3	90	212,8
	Dehqon xo'jaligida	-	-		-
	Qishloq xo'jalik korxonalarida	0,4	12,7	21	165,4
	Tuman bo'yicha	20,4	55,0	111	201,8

*Manba: Pastdarg'om tumani Qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ma'lumotlaridan

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinadiki 2013 yilda 2012 yilga nisbatan go'sht yetishtirish 6,5% ga, sut ishlab chiqarish 6,0% ga, tuxum yetishtirish 12,5% ga, jun

ishlab chiqarish 6,1% ga, asal ishlab chiqarish 102,9% ga ko'paygan. Tumanda baliqchilikka ham katta e'tibor berilib, bir yilda qariyb 2 barobarga ko'paygan. Go'sht, sut tuxum yetishtirish asosan aholi xo'jaliklarida ishlab chiqiladi.

2.3.3.-jadval

Pastdarg'om tumani MMTP xo'jaliklaridagi chorva mollari soni xaqida ma'lumot (2012-2013 yy.)*

№	MMTP nomi	Jami qoramollar			Sigirlar			Qo'y-echkilar			Yilqilar			Parranda		
		2012	2013	%	2012	2013	%	2012	2013	%	2012	2013	%	2012	2013	%
1	O'zbekiston	625	640	102	190	220	116									
2	Do'stlik	1937	1745	90	739	757	102	348	353	101	39	29	74	400	150	37
3	O'z.mustaqilligi	572	522	91	411	182	44	599	164	27	34	36	106			
4	B.Kumakov	202	254	126	87	105	120							10851	6175	57
5	Go'zalkent	84	44	52	29	8	27	124	-	X	5	1	20			
6	A.Navoiy	50	50	100	20	20	100									
7	Q.Turayev	76	76	100	19	19	100					1				
8	S.Mallayev	100	104	104	21	10	48	18		X						
9	S.Tursunov	253	199	79	74	46	62	87	44	50	6	4	67			
10	Yangiobod	181	151	83	28	18	64	54	54	100	22	22	100			
11	A.Yassaviy	66	60	91	24	27	112	66	-	X	1					
12	Xoncharbog'	35	44	126	6	8	133	35		X	2	1	50			
13	A.Temur	50	50	100	21	21	100									
14	Navro'z	497	512	103	182	178	98	113	209	185	28	25	89			
15	Bobur	123	52	425	42	15	36	20		X	4	1	25			
16	Sh.Rashidov-1	99	74	75	25	21	84	31	31	100	1	2	200			
17	Samarqand	106	40	38	31	13	42	67	23	34	2	1	50			
18	Ilm	104	106	102	35	40	114	91	108	119	4	5	125			
19	Oxunboboyev	88	78	89	26	26	100	73	73	100	1	1	100			
20	M.Ulug'bek	100	90	90	33	24	73	60	50	83	3	3	100			
21	Sh.Rashidov-2	51	70	137	28	15	53	56	34	61	1	9	900			
22	N.Nortoyev	366	255	70	71	101	142	51	66	129	3	4	133	8100		
23	S.Raximov	78	58	74	18	16	89									
24	Mevali	56	42	75	15	11	73	41	24	58		2				
25	M.Dangalov	39	42	108	12	25	208	26	26	100	1	1	100			
26	Navbahor	74	74	100	35	35	100	160	160	100						
27	Pastdarg'om	30	36	120	15	19	127		12	X		2				
28	Chandirobod	70	107	153	22	41	186	22	69	313		4				
29	Zarafshon	62	62	100	18	14	78	65	65	100		2				
30	O'rta Chimboy	90	81	90		20	X	50		X						
31	Kichik Chimboy	177	87	49	20	26	130	2616		X				12963		
Tuman bo'yicha		8308	5770	69	1930	2113	109	4462	1525	34	110	157		27314	6324	23

*Manba: Pastdarg'om tumani Qishloq va suv xo'jaligi bo'limi

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki tuman 31 ta MMTPlari qarashli 85 ta fermer xo'jaliklarida chorvachilik bilan shug'illanadi. Jami 2012 yilda 8308 bosh qoramol bo'lsa 2013 yilga kelib 5770 boshni tashkil etib oldingi yilga nisbatan 69% ni tashkil etgan xalos. Shundan 2012 yilda 1930 bosh sigirlar bo'lsa 2013 yilga kelib 2113 boshga yetgan, qo'y-echkilar soni 2012 yilda 4432 bosh bo'lsa, 2013 yilda 1525 bosh qo'y echkilarni tashkil etgan xalos. Parrandalar soni esa keskin kamayib ketgan. Shartli mollar soni 2012 yilda 5222 boshni tashkil etgan bo'lsa 2013 yilga kelib 4533 tashkil etgan xalos.

Tumanda chorvachilikni rivojlantirish uchun yetarli sharoitlar yaratilgan, jumladan fermer xo'jaliklariga yetarlicha ozuqa maydonlari ajratilgan. Ajratilgan yer maydonlari to'g'risidagi ma'lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan.

Ushbu 2.3.4-jadvaldan ko'rinadiki tumanda ozuqa uchun fermer xo'jaliklarida jami 2013 yilda 1368 gektar yer ajratilgan, bu ko'rsatkich 2012 yilda 1739,1 gektarni tashkil etgan. Shundan 2013 yilda 729 gektari eski bedalar, 155 gektari yangi beda maydoni, 459 gektari makka silosi uchun ajratilgan. 2013 yilda 2012 yilga nisbatan 381,4 gektar kam yer ajratilgan.

Umuman olganda Pstdarg'om tumanida chorvachilik sohasini rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda.

2.3.4.-jadval

Pastdarg'om tumani chorva fermer xo'jaliklarida ozuqa uchun ajratilgan yer maydonlari bo'yicha ma'lumotlar (2012-2013 yy.)*

№	MMTP nomi	Jami yer maydoni		Jami ozuqa maydoni		Eski beda		Yangi beda		Makka silos		lavlagi		Bir shartli molga, ga	
		2012	2013	2012	2013	2012	2013	2012	2013	2012	2013	2012	2013	2012	2013
1	O'zbekiston	90,5	153,6	90,5	133,6	50	80			36,5	49,6	4	4	0,38	0,25
2	Do'stlik	885,4	813,7	589,1	559,1	315	309	64	112	178,7	165,5	30,4	20,9	0,31	0,24
3	O'z.mustaqilligi	438,3	450,3	147,3	106,3	72,4	69	14	9	51,8	27	5	1,3	0,32	0,32
4	B.Kumakov	70,5	70,5	39,8	59,8	24,3	24,3	2,5	10	11,3	13,3	1,7	1,7	0,13	0,25
5	Go'zalkent	35	17	27	10	10	6		1	15	3			0,32	0,33
6	A.Navoiy	17,8	32,5	7	12,5	3	8	2	2	2	2			0,31	0,32
7	Q.Turayev	22,2	62,2	19,1	19,1	14	14			5	5	0,1	0,1	0,35	0,35
8	S.Mallayev	116,9	98	22,5	21,6	10	15	2		10,5	6,6			0,35	0,28
9	S.Tursunov	161,7	122,2	51,3	37	32	24	3,9	0,5	16,5	11,9	3,1	0,1	0,30	0,27
10	Yangiobod	102,8	44,6	26,5	16,5	16	10			10	6	0,5	0,5	0,20	0,20
11	A.Yassaviy	31,6	31,6	21,5	21,5	10	10	4	4	6,5	6,5	1,1	1,1	0,38	0,46
12	Gumbaz	18	9,3	7	6,3	4	4			3	2,3			0,24	0,19
13	A.Temur	25,7	25,7	9,7	9,7	6	6			4	4	0,7	0,7	0,26	0,25
14	Navro'z	136,3	136,3	98,4	98,4	53,8	53,8	3	7	42	42,8	2,51	2,51	0,22	0,22
15	Bobur	45,6	10	27,4	10	13	5			15	5			0,27	0,26
16	Sh.Rashidov-1	55,2	50,2	34,2	25,2	17	14			17,2	11,2			0,46	0,30
17	Samarqand	60	9,3	22,5	6,3	11	4	3		8,2	2,3	0,3		0,27	0,19
18	Ilm	109,5	109,5	19	19	9,5	9,5			9,5	9,5			0,22	0,22
19	Oxunboboyev	28	28	25	25	15	15			10	10			0,44	0,38
20	M.Ulug'bek	51,9	51,9	18,1	20	9	13			9,1	7			0,22	0,30
21	Sh.Rashidov-2	16,2	58	12,2	12	8	2	2		6,2	1			0,17	0,17
22	N.Nortoyev	141	284	58	17	41	10			14	7	2		0,20	0,24
23	S.Raximov	66,7	66,7	16,2	10,2	12	6			4,2	4,2			0,30	0,25
24	Mevali	46,4	46,4	10	10	4	4			6	6			0,25	0,29
25	M.Dangalov	10,8	10,8	8,8	8,8	3	3			5	5	0,8	0,8	0,28	0,27
26	Navbahor	142,3	142,3	36	36	10	10	6	6	9	9	1	1	0,49	0,40
27	Pastdarg'om	57,8	30	5	5	2	2			3	3			0,36	0,16
28	Chandirobod	104	142	14,3	17,3	8	11			6,3				0,25	0,10
29	Zarafshon	58,5	56,5	17	17	8	8			9	9			0,33	0,33
30	O'rta Chimboy	30	30	12	12	3	3			9	9			0,18	0,21
31	Kichik Chimboy	40,1	40,1	18	18	8	8	2	2	7,8	7,8	0,2	0,2	0,26	0,28
Tuman bo'yicha		5781,6	3495	1739,4	1368	871	729	116,5	155	2317,2	459	57,61	35	0,25	0,25

Manba: Pastdarg'om tumani Qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ma'lumotlaridan

2.4. Yer va mehnat resurslari va ularning turlari

Yer resurslari, boshqa ishlab chiqarish vositalardan tubdan farq qilgani xolda, asosiy ishlab chiqarish vositasi xisoblanib, bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi iqtisodiga katta tasir ko'rsatadi.

Yer umrbodlik ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi, eskirmaydi, aksincha u yaxshilab parvarish qilinsa, ko'p hosil beradi. Yerning bu xususiyatlari uning umrbodligiga, ya'ni parvarish qilinayotgan o'simlikni zarur ozuqa moddalari bilan qondirish va hosil yetishtirish xususiyatiga bog'lik. Iqtisodchilar tuproq unumdorligini uch turga ajratganlar:

1.Tabiiy 2.Sun'iy 3.Iqtisodiy

Tuproqning unumdorligi - quyosh, shamol, suv kabi tabiiy kuchlarning ta'sirida uzoq davom etgan tuproq hosil bo'lishi jarayonining natijasidir. Tuproqning tabiiy unumdorligi, uning fizik, kimyoviy va biologik xususiyatlarini harakterlaydi, u dehqonchilik uchun xal qiluvchi ahamyatga ega, iqtisodiy unumdorlikning asosi hisoblanadi. U insonning mehnat faoliyatiga bog'lik bo'lmagan holda harakat qiladi. Lekin tabiiy unumdorlik yerning potensial sifatinigina harakterlaydi. Tuproq oziqa moddalariga boy bo'lganligi bilan, unga ishlov berilmasa, ya'ni inson mehnati ta'sir etmasa, u kutilgan natijani bermasligi mumkin.

Insonning ishlab chiqarish faoliyati natijasida yaratilgan unumdorlik sun'iy unumdorlik deb ataladi, u ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasiga bog'liq bo'ladi va shuning uchun jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida bir xil emas.

Tabiiy va sun'iy unumdorlik birlikda iqtisodiy unumdorlikni tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi yer kodeksining 8-moddasida yer fondi toifalari belgilab qo'yilgan. "O'zbekiston Respublikasining yer fondi yerlardan foydalanishning belgilangan asosiy maqsadiga ko'ra quyidagi toifalarga bo'linadi: – qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga tayin etilgan yerlar – qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yoki ana shu maqsadga mo'ljallangan yerlar. Qishloq

xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar sug'oriladigan va sug'orilmaydigan (lalmikor) yerlar, haydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, ko'p yillik mevali dov-darxtdar va tokzorlar egallagan yerlarga bo'linadi;

– aholi punktlarining (shaharlar, posyolkalar va qishloq aholi punktlarining) yerlari – shaharlar va posyolkalar shuningdek qishloq aholi punktlari chegarasi doirasidagi yerlar;

– sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar – ko'rsatilgan maqsadlarda foydalanish uchun yuridik shaxslarga berilgan yerlar;

– tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, realizasiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar – alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar egallagan, tabiiy davolash omillariga ega bo'lgan yerlar, shuningdek ommaviy dam olish va turizm uchun foydalanadigan yerlar;

– tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar – tarixiy-madaniy yodgorliklar joylashgan yerlar;

– o'rmon fondi yerlari – o'rmon bilan qoplangan, shuningdek o'rmon bilan qoplanmagan bo'lsa ham, o'rmon xo'jaligi ehtiyoji uchun berilgan yerlar;

– suv fondi yerlari – suv obektlari, suv xo'jaligi inshootlari egallagan yerlar va suv obektlarining qirg'oqlari bo'ylab ajratilgan mintaqadagi yerlar;

– zahira yerlar.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga ajratilgan yerlarga haydaladigan yerlar, yaylovlar, ko'p yillik daraxtzorlar, pichanzorlar kiradi.

Qishloq xo'jaligida yer fondi asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida quyidagi xususiyatlarga yega:

1) Yer tabiatda chegaralangan. Uni insoniyat xohlaguncha ko'paytirish imkoniga ega emas. Demak, yagona to'g'ri yo'l – mavjud yer resurslaridan samarali foydalanishdir. Bundan tashqari sanoatning, kommunikatsiyaning o'sishi aholining ko'payishi tabiiy holda bir kishiga to'g'ri keladigan yer maydoni qisqarishiga olib keladi. Qolaversa, insoniyat yerdan to'g'ri foydalanmasligi oqibatda ularning qishloq xo'jaligi aylanishidan chiqib ketish hollari ham yuz

bermoqda. Taraqiyotning tuproq erroziyasi, sho'r bosish, kasalliklarga chalinish kabi salbiy oqibatlarini kamaytirish har bir davlatning, yerdan foydalanuvchilarning birinchi galdagi vazifasidadir.

2) Yer – tabiat mahsuli. Bu ham bizning oldimizga qator vazifalarni qo'yadi. Uni yaratishda inson mehnati aralashmagan. Albatta bozor munosabatlari talablaridan kelib chiqib yerning bahosi shakllanadi. Lekin bu baho uning haqiqiy narxi qancha ekanligini aniq belgilay olmaydi. Yerni oldi-sotdi jarayonlarida bu xususiyatlarni hisobga olish lozim. Bozor munosabatlarining rivojlanishi yerni oldi-sotdi obektiga aylantiradi. Bundan tashqari yerlarni iqtisodiyot tarmoqlarida foydalanish uchun qishloq xo'jaligidan ajratib beryotganda uning narxini bilish ijobiy ahamiyatga ega. Imkoni boricha qishloq xo'jaligidan yer boshqa sohalar uchun ajratilganda past unumli, qishloq xo'jaligi uchun qimmatli past yerlardan ajratish maqsadga muvofiq. Shu sababli yerning bozor narxini aniqlash tartibi mavjud. Yerning narxi quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$Yern = \frac{Yerr}{Sf} \times 100$$

Bunda: Yern – yerning narxi, so'm;

Yerr – yer rentasi, so'm;

Sf - ssuda foizi.

3) Yer abadiy ishlab chiqarish vositasidir. Bu degani yerdan o'z bilganimizcha abadiy foydalanish mumkin degani emas. Balki yerdan to'g'ri va oqilona foydalangandagina u qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun abadiy bo'lishi mumkin. Yerdan noto'g'ri foydalanish esa uning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun yaroqsiz holga kelib qolishiga sabab bo'ladi. Masalan, 2005 yilning 1-avgusti ma'lumotlariga qaraganda birgina Farg'ona vodiysida 2000 yilda mavjud bo'lgan 366 ming gektar sug'orilib dehqonchilik qiladigan yerlarning 9 ming gektari ekin ekish uchun yaroqsiz holga kelib qolgan.

4) Turli joylarda mavjud yer maydonlari turli sifatga, ya'ni unumdorlikka ega. Yerning tabiiy, sun'iy va iqtisodiy unumdorligi bir – biridan farqlanadi. Tabiiy unumdorlik – yerning inson aralashuvisiz tabiat tomonidan vujudga kelgan hosil

bera olish qobiliyatidir. Inson aralashuvi natijasida vujudga kelgan unumdorlik sun'iy unumdorlikdir. Bu unumdorlikni oshirish imkoniyatlari katta. Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, respublika yerlarining tabiiy unumdorligi pasayib bormoqda. Tuproqda mavjud bo'lgan gumus moddasining pasayishi kuzatilmoqda. Buning oldini olishning asosiy yo'llari yerga dam berish, yerlarning holatini hisobga olib qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirish, yerga organik o'g'itlarni (har bir gektarga kamida 15 tonnadan) solish, sug'orishning ilg'or texnologiyalaridan foydalanish zarur. Tabiiy va sun'iy unumdorlik birgalikda (ularnig yig'indisi) iqtisodiy unumdorlik tushunchasini beradi.

5) Yerni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish mumkin emas. Demak qishloq xo'jaligida yerdan foydalanishni yaxshilash uchun har bir xo'jalik hududida qanday sifatga ega yer bo'lsa shunga qarab ekin turlarini joylashtirish lozim. Bu xususiyat qishloq xo'jaligi korxonalariga faoliyat uchun o'rnatiladigan soliq tizimini ishlatishda ham hisobga olinishi talab qilinadi.

Bularning barchasi mavjud yerlarda qaysi ekin turlarini joylashtirish, texnikaning qanday turlaridan foydalanish va ishlab chiqarishning hajmi qanday bo'lishi maqsadga muvofiqligi to'g'risida inkor etib bo'lmaydigan talablarni keltirib chiqaradi.

Yer to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar Davlat yer kadastrida mujassam etiladi. Davlat yer kadastrida quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- yerdan foydalanuvchilarni davlat ro'yxatiga olish;
- yerni miqdor va sifat jihatdan uchyotga (hisobga) olish;
- yerni baholash (tuproq bonitirovkasi va iqtisodiy baholash).

Qishloq xo'jaligida yer fondi asosiy ishlab chiqarish vositasi ekan, undan qanday (samarali, samarasiz, yaxshi yoki yomon) foydalanayotganligimizni bilishimiz zarur. Yerdan foydalanishning darajasi, samaradorligini aniqlashning usullari olimlar tomonidan yetarli darajada chuqur o'rganilgan. Iqtisodiy fan qishloq xo'jaligida yerdan foydalanish holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni ikki guruhga bo'lib o'rganadi. Birinchi guruhga yerdan foydalanish darajasini ifodalovchi quyidagi ko'rsatkichlar kiradi:

1) Yer fondining tarkibi (strukturasi). Jami yer maydonida qishloq xo'jaligiga yaroqli (qishloq xo'jaligiga tayin etilgan) yerlarining salmog'i, (foizlarda ifodalanadi). Bu ko'rsatkich quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$Qx.yer.sal. = \frac{Qx.te.yer}{J.yer.m} \times 100$$

Bunda: $Qx.yer. sal.$ – qishloq xo'jaligiga yaroqli yer salmog'i, %

$J.yer.m.$ - jami yer maydoni, ga

$Qx. te. yer.$ - qishloq xo'jaligi uchun tayin etilgan yer maydoni, ga

Bu ko'rsatkich mavjud yer maydonlarining qancha qismi qishloq xo'jaligi uchun yaroqli (yoki qishloq xo'jaligiga tayin etilganligini) ekanligini bildiradi. Turli xo'jaliklarning, mamlakat va regionlarning umumiy yer maydonlari bir miqdorda bo'lishiga qaramasdan qishloq xo'jaligida foydalanishga yaroqli bo'lgan maydonlari turlicha bo'lishi mumkin. Qishloq xo'jaligiga yaroqli bo'lgan yerlari kam miqdorda bo'lgan davlatlar, region va xo'jaliklar bu masalaga alohida qarashlari zarur. Ular har bir gektar yerni avaylab asrashi va qishloq xo'jaligidan boshqa tarmoqlarga o'tib ketishini juda qattiq nazoratga olishlari zarur bo'ladi. Mamlakat, mintaq (hudud) va xo'jaliklarda yerlarni qishloq xo'jaligidan boshqa tarmoqqa o'tib ketishi faqatgina davlat zarurati, imkonsiz hollarda yoki juda katta samara keltirishi mumkin bo'lgan holatlardagina amalga oshirilishi kerak.

2) Qishloq xo'jaligi yerlarining tarkibi. Bu ko'rsatkich qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar tarkibini ko'rsatadi. Jumladan, jami qishloq xo'jaligi yerlarida haydaladigan yer salmog'i quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$Qx.yer.tar. = \frac{Qx.yer.turlari}{JQx.yer.m.} \times 100$$

Bunda: $Qx. yer. tar$ – qishloq xo'jaligi yerlarining tarkibi, %

$Qx. yer turlari$ - qishloq xo'jaligiga yaroqli yer maydoni, ga

$JQx yer m.$ - jami qishloq xo'jaligi yer maydoni, ga

Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar tarkibida haydaladigan yerlarning ayniqsa, sug'oriladigan yerlarning salmog'iga qarab tegishli xulosalar chiqaramiz. Xo'jalikda haydaladigan, ayniqsa (tabiati issiq o'lkalar sharoitida) sug'orilib

dehqonchilik qiladigan yerlarning ulushi qancha yuqori bo'lsa shuncha yaxshi (samarali) hisoblaymiz. Olimlarning izlanishlari shuni ko'rsatadiki, 1 gektar sug'orilib dehqonchilik qilinadigan yer 5-7 gektar lalmi yerga teng mahsulot berar ekan. Boshqacha qilib aytganda, 1 gektar sug'orilib dehqonchilik qilinadigan 6-7 gektar lalmi yerga teng. Agarda yer maydonlarining cheklanganligini, har bir ga yerni haydash, ekish, ishlov berish va hosilni yig'ib olish harajatlarini hisobga olsak sug'oriladigan yerlarning naqadar qadr-qimmati yuqori ekanligini ko'ramiz. Demak, imkon darajasida sug'orilib dehqonchilik qilinadigan maydonlarini asrash zarurati kelib chiqadi. Bozor sharoitida u boshqa yerlarga nisbatan qimmat turadi. Demak, unga narx belgilashda, boshqa maqsadlar uchun ajratganda yoki soliq yukini belgilaganda, bu omilni hisobga olib zarur bo'ladi.

3) Yerdan foydalanish koeffitsiyenti (martaliligi). Bu ko'rsatkich quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$Yerf.k. = \frac{X_{em, ga}}{J.e.m., ga}$$

Bunda: Yerf k – yerdan foydalanish koeffitsiyenti, marta

X_{em, ga}. - haqiqatda ekilgan yekin maydoni, ga

J_{em, ga} - jami ekin maydoni, ga

Ushbu ko'rsatkich har bir mamlakat, hudud va xo'jaliklarda bir biridan keskin farq qiladi. Uning darajasi mamlakatning rivojlanganlik darajasi, aholining va yer maydonlarining miqdori kabi ko'plab omillar ta'sir yetadi.

Yer fondidan foydalanish ko'rsatkichlarining ikkinchi guruhiga iqtisodiy samaradorlik bilan bog'liq ko'rsatkichlar kirib ularning o'zi natural va qiymat ko'rsatkichlarga bo'linadi. Natural ko'rsatkichga qishloq xo'jaligi ekin turlarining hosildorligi kiradi. Hosildorlik quyidagicha aniqlanadi.

$$X = \frac{Y_{ax}}{E_{m., ga}}$$

Bunda: X – ekin turlarining (paxta, bug'doy, makka, uzum, meva...) hosildorligi, s/ga

Y_{ax} - yalpi (paxta, bug'doy, makka, uzum, meva...) hosil, s

Yem, ga - ekin (paxta, bug'doy, makka, uzum, meva...) maydoni, ga

Respublikamizning umumiy yer fondi 44,8 mln. ga ni tashkil etadi, shundan 27,9 mln. ga yoki 62,3% qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardir. Shu yerlarning 4 mln. 474 ming ga yoki 15,95% haydaladigan yerlardir. Yer fondining 5-6 mln. gektari dehqonchilikda foydalaniladi Ulardan 4,2 mln gektari sug'oriladigan yer bo'lib, shundan 1,6 mln ga cho'l zonasida, qolgan qismi suvli mintaqada joylashgan. Shu sug'oriladigan yerlarning 3 mln.ga ekinzordir.

Qishloq xo'jaligida yer-suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi. Yer va suvdan foydalanish darajasi oshgan sayin mahsulot hajmi ko'payib, ishlab chiqarish samaradorligi oshib, natijada iqtisodiyot mustahkamlanib boradi. Shuning uchun ham yer va suv resurslaridan foydalanish darajasini uzluksiz ravishda tahlil qilish zarur. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan hamda suvdan oqilona samarali foydalanish - qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish orqali mamlakatda oziq-ovqat muammosini hal qilishda nihoyatda katta rol o'ynaydi. Ushbu iqtisodiy jarayonni Pastdarg'om tumani fermer xo'jaliklarida yaroqli bo'lgan yer resurslarining hozirgi holatini o'rganish asosida ulardan foydalanish samaradorligini yanada oshirish uchun mavjud bo'lgan imkoniyatlarni aniqlab, takliflar berishdan iboratdir.

Ishlab chiqarish jarayonida mehnat resurslarining yetarliligi va sifati katta ahamiyatga egadir. Respublika aholisining bir qismi bo'lib mehnat resurslari, ular xalq xo'jaligida ishlash uchun jismoniy imkoniyatlar, bilim va amaliy tajriba yig'indisiga ega bo'ladi. Ular o'zlariga aholining 16 dan 55 yoshgacha bo'lgan ayollarni, 16 dan 60 yoshgacha bo'lgan mehnatga qobiliyatli erkaklarni, shuningdek mehnatga yaroqlilik yoshidan katta yoki kichik xalq xo'jaligida haqiqatan band bo'lganlarni (ishlaydigan pensionerlar va maktab o'quvchilari) qamrab oladi.

Iqtisodiy faol aholi (ishchi kuchi)-moddiy qiymatliklar ishlab chiqish va xizmat ko'rsatishda ishtirok etishga imkoniyatli shaxslarning yig'indisi.

Band aholi ishlab chiqarish yoki noishlab chiqarish faoliyatiga jalb etilgan shaxsdir. Aholining band qismiga yollanib ishlaydiganlar, tadbirkorlar, erkin kasb egasi bo'lgan shaxslar, harbiy xizmatchilar, kasbiy ta'limning kunduzgi shaklida o'qiyotganlar kiritiladi. Qishloq xo'jaligida band aholi soni 15-16 mln. kishini tashkil etadi.

Mehnat resurslari tuzilmasi – bu turli toifadagi ishchilarning ularning umumiy miqdoriga foizli nisbati. Qishloq xo'jaligi korxonalari xodimlari tuzilmasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida band ishchilar ulushi 85-90 %, shu jumladan doimiylar 70-75 %, shundan traktorchi-mashinistlar 3-4 %, mavsumiy va vaqtinchalik 5-6 %, rahbarlar va mutaxassislar ulushiga 2-3 % to'g'ri keladi. Tuzilma ko'plab omillar bilan aniqlanadi: korxonaning o'lchami va ixtisoslashganligi; uning integrasiyalashuv jarayonlarida qatnashuvi, tabiiy sharoitlar va boshqalar. U yoshi, jinsi, ma'lumot darajasi, ish staji, malakasi kabi qator belgilar bilan hisoblanishi mumkin.

Ishchilarning ro'yxatga olingan o'rtacha miqdori yiliga ularning ro'yxatga olingan o'rtacha miqdorining hamma oylar bo'yicha jamlab olingan miqdorini 12 ga bo'lish yo'li bilan topiladi.

Mehnat resurslarini qayta taqsimlash shakli – ishchi kuchi migrasiyasi, ya'ni mehnatga qobiliyatli aholi yashash joyining o'zgarishi va ko'chishi. Bunda mamlakat chegarasidan o'tib ketilishi yoki o'tilmasligiga qarab ichki va tashqi migrasiyani farqlaydilar. Ichki migrasiya (mamlakat hududi ichida, qishloqdan shaharga) – aholi tarkibining va joylashuvining o'zgarishi, bu bilan mamlakat aholisining soni o'zgarmaydi albatta. Tashqi migrasiya esa mamlakat aholi sonini kengaytirib yoki miqdorini ko'paytirib unga ta'sir etadi. Tashqi migrasiya mamlakatdan tashqariga doimiy yashash uchun ketgan va mamlakatga xorijdan yashash uchun kelgan odamlar soni orasidagi farqni o'zida aks ettiradi.

Qishloq xo'jaligida va qayta ishlovchi tarmoqlarda mehnat resurslaridan foydalanishning o'ziga hosligi ishlab chiqarish davrlarining bir-biriga mos kelmasligi natijasi bo'lgan mehnatning davriyligidir. Davriylik ekish, o'simliklarni parvarishlash, hosilni yig'ib olish, qishloq xo'jaligi xom-ashyolarini qayta ishlash

davrida mehnatga ehtiyojning ortishi va uning qish davrida kamayishida ifodalanadi. Chorvachilikda, sanoat ishlab chiqarishida, avtotransportda mehnat sarfi yil davomida deyarli bir xil.

Mehnatning davriyligi bilan bog'liq asosiy ko'rsatkichlarni keltiramiz.

Yillikka nisbatan mehnat sarfining oylik taqsimlanishi (foizlarda). Mehnatdan bir tekis foydalanishda o'rtacha xarajatlar 8,33 % (100:12) ni tashkil yetadi.

Qishloq xo'jaligida mehnat resurslaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri ishning ko'p qirraliligida va bajarish muddati qisqa bo'lgan mehnat funksiyalarining ishchilar tomonidan birga olib borilishida namoyon bo'ladi.

Qishloq xo'jaligida ishchi kuchidan foydalanish darajasiga va agrosanoat ishlab chiqarishi samaradorligida ta'sir etuvchi muhim omil korxonaning mehnat resurslari bilan ta'minlanganligidir. Ishchi kuchi bilan yetarlicha ta'minlanmaganlik ishlab chiqarishning rejalashtirilgan hajmi bajarilmasligiga, dala ishlarini o'tkazishning optimal agroteknik muddatlariga amal qilmaslik, oxir-oqibatda qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining qisqarishiga olib keladi. Mehnat resurslari bilan keragidan ortiq ta'minlanganlik esa ishchi kuchidan to'liq foydalanmaslik va mehnat unumdorligi pasayishiga olib keladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi haqida qishloq xo'jalik ekini maydonining bir ishchiga to'g'ri keladigan hisobida ham aniqlash mumkin.

Biroq 100 ga qishloq xo'jaligi ekiniga ishchilar soni yoki bir ishchiga qishloq xo'jaligi ekini maydonining hisob-kitobi mehnat resurslari bilan ta'minlanganlikni yetarlicha aniq ravishda harakterlay olmaydi. Chunki, bunda qishloq xo'jalik korxonasining intensivikasiya va ixtisosligi darajasi bo'yicha farqi hisobga olinmaydi. Xo'jalikning mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti yaxshiroq aniqlanadi. Qishloq xo'jalik korxonasini ishchi kuchi bilan ta'minlash muammosini hal etishda mehnat bozori muhim ahamiyat kasb etadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida mehnat resurslari tarkibiga

1. Doimiy;

2. Mavsumiy;
3. Vaqtinchalik ishchilar, shuningdek, shtatda turuvchi;
4. O'smirlar;
5. Nafaqaxo'rlar kiradilar.

Shu jumladan:

1. Doimiy ishchilarga - muddasiz ishga qabul qilinganlar;
2. Mavsumiy ishchilar - 6 oygacha muddatga qabul qilinganlar;
3. Vaqtinchalik ishchilarga - 2 oygacha muddatga qabul qilinganlar kiritiladi.

Pastdarg'om tumanida mehnat resurslari to'g'risidagi ma'lumot 2.4.1-jadvalda ko'rsatilib o'tilgan.

2.4.1-jadval

Pastdarg'om tumanida mehnat resurslari manbalarining shakllanishi, kishi

№	Ko'rsatkichlar	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2013 yilda 2011 yilga nisbatan o'zgarish	
					Mikdoriy, +/-	Nisbiy, %
1.	Mavjud aholi soni	284720	289125	292234	9514	103,4
2.	Mehnatga layoqatli aholi	151145	156234	156870	7725	105,2
3.	Band aholi	82120	85746	101235	4115	104,2

Manba: Pastdarg'om tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ma'lumotlari

2.4.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Pastdarg'om tumani fermer xo'jaliklarida mehnat resurslari soni maqbullashtirish natijasida kamayib borgan.

Qishloq xo'jaligida ish kuchidan foydalanish bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu ishlab chiqarish sharoitidan, foydalaniladigan texnologiyadan, texnika bilan ta'minlanish darajasidan, qishloq mehnatkashlari uchun dehqon xo'jaligining mavjudligidan kelib chikadi.

Qishloq xo'jalgi korxonalarida mehnat xususiyatlari tarmoqda sarflangan mehnatning miqdoriga, sifatiga va samarasiga bevosita ta'sir etadi. Turlicha tabiiy sharoitda, har xil darajada ixtisoslashgan xo'jaliklarda bir xil ish jarayonlarini amalga oshirish uchun har xil miqdorda bir turdagi mehnat sarflanadi, uning samaradorligi ham bir-biridan farq qiladi. Kech kuz, qish va erta bahorda mehnat

sarfi keskin kamayib, hosilni yig'ib olishda unga bo'lgan talab ortadi. Shu davrda mavsumiy ishchilar shartnoma asosida jalb etiladi. O'simlikchilik va chorvachilikda bajariladigan ishlarning ko'pchiligi yuqori darajada bilim va malaka talab etmaydi. Tarmoqning yangi, unumli texnikalar bilan talab darajasida ta'minlanmaganligi ayrim ish jarayonlarini (sug'orish, chikanka qilish, hosilni yig'ib olish, chorva hayvonlarini oziqlantirish va hokazo) to'liq mexanizasiyalashtirish imkonini bermaydi, natijada oddiy jonli mehnat xarajatlari ortadi. Shuning uchun qishloq xo'jaligida jumladan fermer xo'jaliklarida mehnat jarayonini amalga oshirishda uning samarali bo'lishini ta'minlash uchun barcha xususiyatlarni e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

3. CHORVA MOLLARI UCHUN OPTIMAL RATSION TUZISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH

3.1.Ozuqa turlari, ularning to'yimlilik va ratsion tarkiblari

Tabiiy holda yoki sun'iy yo'llar bilan olinadigan, xayvonlar fiziologik va mahsuldorlik talablarni qondirish uchun iste'mol qilinadigan ozuqa vositalari - o'simliklar, oziq-ovqat chiqindilari mineral moddalar, maxsus tayyorlangan aralashmalar hamda ozuqa preparatlari va hokozolarga ozuqa deb yuritiladi. To'g'ri oziqlantirish bu chorvachilikni rivojlantirish, chorva mahsulotlarini yanada ko'paytirish, sifatini oshirish, ularning nasldorliklarini yaxshilash tadbirlaridan eng muhimlaridandir.

Yetishtirish yoki boshqa manbalariga qarab ozuqa bir qancha guruxga bo'linadi: o'simlik mahsulotlaridan olinadigan ozuqalar; hayvon mahsulotlaridan olinadigan ozuqalar; mineral ozuqalar; mikrobiologiya va kimyo sanoati yoki sintiz mahsulotlari va hakoza.

Bizning Respublikamizda chorvachilikda foydalaniladigan asosiy ozuqa vositalarini quydagicha guruhlash mumkin:

-shirali ozuqalar -barcha ko'k o't, silos, senaj, ildizmevalilar, polizchilik va sabzavodchilik mahsulotlari va ularning chiqindilari;

-dag'al ozuqa -pichan, paxol, samon va h.k.

-konsentrat ozuqalardan va uning chiqindilaridan, omixta yem, kunjara, shirot, tegirmon chiqindilari.

-chorvachilik maxsulotlaridan olinadigan ozuqalar -sut va sut mahsulotlari, go'sht, baliqchilik sanoat chiqindilari, parrandachilik va pillachilik korxonalari chiqindilari.

-mineral ozuqalar -osh tuzi, bo'r, fosfat va xar xil makro va mikro element tuzilari.

-oqsillar (aminokislotalar) vitaminli qo'shimchalar, ferment preparatlari, garmonsimon moddalar va boshqalar.

O'simchilik mahsulotlaridan iborat ozuqalarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- ko'k o't, ko'k poya va beda;
- silos;
- sinaj;
- dag'al xashak;
- don ozuqalari;
- ildiz mevali ozuqalar;
- poliz ekinlarining mevasi;
- sanoat chiqindilari;
- omuxta yemlardan iborat.

Yerda unib chiqadigan, xayvonlarga yaylovda, dala-dashtlarda o'tlatadigan yoki o'rilib beriladigan ko'k massalarga ko'k ozuqa deb aytiladi.

Ko'k o't tarkibida organik moddalar 70% dan yuqori va protein 80% gacha bo'ladi. Tabiiy va madaniy yaylov o'tlaridan foydalanish iqtisodiy jixatdan katta samara beradi.

Respublikamizda siloslardan ko'p foydalaniladi. Silosning afzalligi shundan iboratki, o'zining to'yimlilik va biologik xususiyati jixatdan silos ko'k o'tdan kam farq qiladi. Siloslangan ozuqada shakar 90%, oqsil 50%, gacha kamayadi. Silosda 2,5-2,8 organik kislotalar bor.

So'ldirilgan ko'k o'tlardan, masalan makkani konservatsiyalashdan silos hosil qilinadi va u amalda keng qo'llaniladi. Ko'k beda tayyorlanganda sinajda protein 6,9% ni tashkil etadi.

Ozuqani siloslash va sinajga bosishda kimyoviy konservaltdan keng foydalaniladi, o'rishda o'tlardan bioximyaviy va mikrobiologik jarayonlarni kamaytiradi va foydasiz mikroblar rivojlanishi to'xtaydi.

Ildizmevali va poliz mahsulotlari shirali ozuqalarga kiradi va ular bizning sharoitda qishloq xo'jaligi hayvonlari qishgi ratsionida bo'lishlari kerak. Jumladan lavlagi xayvonlarni yengil xazmlanuvchi uglivod bilan ta'minlash manbai bo'lib hisoblanadi. Rasionda protein uglevod nisbatini va boshqa ozuqalarni xazmlanishini yaxshilaydigan parhezli ozuqadir. Qovoq qimmatli ozuqaviy xususiyati bilan lavlagidan afzal hisoblanadi. Qovoqda 0,8% hazm bo'luvchi protein, 0,3% yog', 0,7% klichatka, 4,9% AEM saqlanadi. Sabzini barcha xayvonlarga yedirish mumkin, u sigirlar sutiga yoqimli ta'm va moyiga chiroyli sariq rang beradi. Qovoq va ozuqaviy tarvuz sudor sigirlar uchun va burdoqidagi mollar uchun yaxshi ozuqa hisoblanadi. Dag'al xashaklar eng ko'p tarqalgan pichan tayyorlash hisoblanadi. Pichanning 1kg da 0,5gm ozuqa birligi, 120 gm xazmlanuvchi protein va 30-50 mg/kg karatin bo'ladi. Tariq, arpa va suli poxoli yuqori to'yimlilikga ega

Chorva mollarini ozuqlantirishda qo'llaniladigan urug'li don va uning chiqindilarini konsentrat ozuqa deyiladi. U 3 guruxga bo'linadi. Uglivodlarga boy boshhoqlilar; proteinlarga boy dukkakli; yog' va proteinga boy yog'dor ekinlar don mahsulotlari.

Chorvachilikda ozuqa sifatida turli chiqindilar, texnikaviy chiqindilar, yog' sanoati chiqindilari, kraxmal sanoati chiqindilari va piva sanoati chiqindilari, qand lavlagi sanoati chiqindilari, parranda pati, shu kabilar ham ishlatiladi.

Chorva mollarining jumladan qoramollarning fiziologik talablarini qondirish va ularning mahsuldorligini oshirishda omuxta yemning ahamiyati nihoyatda katta. Undan turli ozuqa vositalari tayyorlanib, xayvonlarni to'yimli moddalarga bo'lgan talabini qondiradi. Omuxta yemning 1sentneri shuncha miqdordagi

donga nisbatan qo'shimcha ravishda 25-30kg sut va 3-4kg go'sht yetishtirish imkonini beradi.

Qishloq xo'jaligi hayvonlarining turli xil to'yimli moddalarga bo'lgan talabi qondirilganda, ularning normal yashash imkoniyati yaratiladi, normal fiziologik holatini doimo saqlaydi, sifatli nasl beradi va hakoza. Bunga erishish uchun tana jismini qondira oladigan yoki mahsuldorligini oshirishga qaratilgan oziq turi va me'yori bilan ta'minlash zarur.

Barcha turdagi hayvonlar uchun ham ozuqa ratsioni odatda xar bir boshga alohida, yoki bir hil yosh, mahsuldorligi, tirik vazni, oziq moddalarga ehtiyoji bir xil bo'lgan mollar guruxga bitta tuziladi. Rasion tarkibidagi ozuqalar mollarni trik vujudini yetarli miqdorda quruq modda va uning tarkibidagi oziq moddalar:ozuqa birligi, protin, kalsiy, fosfor, osh tuzi, karatin va yetarli quvvat bilan ta'minlanishini tegishli muvozanatda saqlab turish kerak. Tuzilgan ratsion bunday talabga javob bera olishi oziq muvozanati deyiladi. Ma'lumki xar xil maqsadlarda parvarishlanayotgan yoki xar xil turdagi hayvonlar uchun ozuqa ratsioni miqdori va tarkibi xar xil bo'ladi. Turli turdagi hayvonlar ratsioni tarkibida tuyimli modda me'yorini ko'rib chiqamiz:

Masalan sog'in sigirlar uchun o'rtacha to'yimli moddalar me'yori jami 17,49 ozuqa birligi bo'lib, 2193,6 g protain, 242g kal'siy, 80,7g fosfor dan iboratdir.

Taxminan xar bir molga o'rtacha kuniga 3-4 kg dag'al xashak, 0,3-1kg to'yintirilgan yem, hamda 7-10 kg atarofida sifatli silos yoki ko'k massa berilishi extiyojga mos kelishi mumkin. Xashak 40% ni somon bilan aralashtirilishi mumkin. G'unojinni boqishda ratsiondagi oziq moddalar va yem-xashak tarkibi, yosh mollar kuniga rejali ravishda ma'lum miqdor bilan qo'shimcha vazn olishga qaratilgan bo'ladi. 400-450 kg trik vaznda bo'lishi mo'ljallangan g'unojin 7-9 oyda o'rtacha 3,6 oziqa birligida, 400 kg protein, 30 g kalsiy, 20 g fosfor, 20 g osh tuzi, 100 mg karatin beriladi.

Yirik shoxli mollarni go'shtga boqish odatda 100-120 kun davom etadi. Shu davrda uning go'shti 1,5 barobardan va oziq moddalar 3 barobar ko'payadi.

O'rtacha bitta katta yoshdagi molga kuniga 70-80 kg , yosh molga 45-50 kg jom, katta yoshdagi mollarga 80-90 l, yosh mollarga 60-65 l barda beriladi. Bundan tashqari yosh mollarga jami 100kg , katta yoshdagilarga 130 kg atrofida yem berish kerak.

Tullaydigan qo'ylarni yaxshi rivojlanishini sog'lom qo'zi olish uchun qish oylarida , erta bahor faslida ularga yuqori sifatli dag'al xashak, aminokislota xar bir qo'zi xisobida 40 kg so'li va 20 kg kunjara sharbat tayyorlanadi . So'li ustiga qaynoq suv solinadi va pishiriladi. Pishib yetilgach sharbati suzib olinadi. Kunjarani xam 1-2 soat qaynatib sharbati suzib olinadi. Sharbat xar-bir qo'ziga 300 g dan ichiriladi. Qish davrida xar-bir sovliqqa 2kg dag'al xashak , 35-40 kg yem, qo'chqorga esa 2,5s pichan yedirish kerak.

Cho'chqa bolalari 1 oy bo'lganda kuniga 150g sut, 50 g qovurilgan don , 100g to'yintirilgan yem , yoki 200g omuxta yem , 65-70 g ildizmevali ozuqa, ko'k beda beriladi. Odatda 4-5 oylik cho'chqalarga tirik vazni 40-45 kg bo'lsa 2-2,5 oziqa birligi , xar bir ozuqa birligi xisobiga 120-130 g protein, 7-8g kalsiy , 4-5g fosfor, 9-10 g osh tuzi , 4g karatein bilgilanadi va xar oyda 0,3-0,4 ozuqa birligi ko'paytirib boriladi. Katta yoshdagi cho'chqalarga 4,8-5 ozuqa berish kerak va xar bir oziqa birligi hisobiga 120-140 , katta yoshdagilarga 130-150 g protein, 7-8 g kalsiy , 4-5 g fosfor, 10-11 g osh tuzi va 10-15 g karatein belgilanish kerak.

Parrandachilikda, masalan tovuqni boqishda ratsionda ko'rsatilgan me'yyorga asosan xar bir tovuqqa sutkasiga 170-200g atrofida yem beriladi Uning tarkibida 29-30 g oqsil bo'lib, ratsion 400-500 kkalloriya energiya ajrata oladi . Me'yor bo'yicha xar bir tovuqqa o'rtacha hisobida 25-28 g oqsil , 415-420 kkalloriya energiya talab qilinadi. Buni ta'minlashda xar bir tovuq ratsionida 100g omuxta yem , 15 g bug'doy, 15g arpa, 4g baliq uni, 2g kombijir, 5 g pishirilgan go'sht, 5 g sut zardobi, 2 g piva achitqisi , 2g bo'r, 1g osh tuzi beriladi. Rasion tarkibida 3,9-4g kalsiy, 1,8-2g fosfor, 0,4-0,5 g osh tuzi, 0,3-0,45 g vitamen A, 0,005-0,006 g vitamen D, 0,5-0,7 g protein bo'ladi.

Shuningdek kurka, o'rdak, g'oz va boshqa parrandalar uchun ham shunga o'xshash tarzda ratsion belgilangan.

Otlarni boqishda uning yoshiga va qio'llanishiga sohalariga qarab turlicha ratsion tuziladi, masalan yengil ishda foydalanib turilgan ot xar bir kg tirik vazniga 0,017-0,019 oziqa birligi ; bunda 350 kg og'irlikdagi otlarga 81 g protein , 4,5-5 g kalsiy va fosfor, 12mg karatein beriladi; 400-450 kg trik vaznga 80 g protein, 4,6g kalsiy va fosfor, 0,3 mg karatein biriladi. 600kg trik vazndagi otga 80 g protein , 4,7 g kalsiy va fosfor, 12 mg karatein me'yorlashtirilgan.

O'rta og'irlikdagi ishda foydalanuvchi otlarga og'irliligiga qarab 0,25-0,27 ozuqa birligi beriladi va xar bir ozuqa birligida 80g protein , 4,6-4,7g kalsiy va fosfor, 12,5mg karatein me'yorlashtirilgan.

Og'ir ishda foydalaniladigan otlarda 1 kg trik vazni hisobiga 0,31-0,35 ozuqa birligi beriladi va xar bir ozuqa birligida 80-81 g protein, 4,5-4,6 g kalsiy, va fosfor, 10g osh tuzi, 13 mg karatein belgilanadi.

Xar bir tur hayvonga yoshiga va boshqa xususiyatlariga qarab , mavjud ozuqa bazasini hisobga olgan holda ratsion tuzish va shu asosida oziqlantirish chorvachilik sohasida katta yutuqlarga olib keladi.

Rasion tuzishda birinchidan mazkur hayvon turiga kerakli me'yordagi to'yimli moddalar bilan ta'minlash, shu bilan birga xo'jalik imkoniyatida bor bo'lgan ozuqalardan foydalanish va eng asosiysi beriladigan ozuqalarning qiymati, ya'ni ratsionning tannarxi arzon bo'lishi talab etiladi. Ushbu talablarga javob beradigan ratsion optimal hisoblanadi. Rasion tuzish jarayoni ko'p variantli masala bo'lib, ular ichidan eng maqbulini tanlashda zamonaviy modellash va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari usullari yordamida hisoblash maqsadga muvofiqdir.

3.2. Optimal ratsion tuzish masalasining umumiy strukturaviy matematik modeli

Chorvachilik sohasida turli hildagi hayvonlar uchun optimal ozuqa ratsionini tuzishda ularning mahsuldorligiga va yetishtirilayotgan mahsulot sifatiga ta'sir etuvchi, zootexniya talablariga javob beruvchi, mahalliy sharoitni hisobga oluvchi turli omillarni hisobga olish va mumkin bo'lgan ko'plab variantlarni qarab chiqishga to'g'ri keladi va ushbu variantlar ichidan eng maqbulini tanlash talab etiladi. Masalani yechishda, ya'ni eng optimal variantini topishda- xo'jalik uchun eng maqbul iqtisodiy sharoit yaratishda iqtisodiy matematik modellash va axborot texnologiyalari usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ratsionni optimallashtirishda juda ham ko'plab variantlarni qarash va ko'pgina omillarning ta'sirini hisobga olishga to'g'ri keladi. Ularni matematik nuqtai nazardan umumiy holda bir-xil ko'rinishda ifodalash, ya'ni masalaning matematik modelini tuzish, uni ma'lum usullar yordamida osonlikcha yechish imkoniyatini beradi.

Ushbu paragrafda biz avvalo barcha turdagi va turli maqsadlarda boqilayotgan hayvonlar uchun ozuqa ratsionini tuzish masalasining umumiy holdagi strukturaviy- iqtisodiy matematik modelini tuzamiz. Buning uchun avval quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

j - noma'lum o'zgaruvchilar indeksi (yani ozuqa turlarining tartib nomeri, masalan 1-omuxta yem., 2-xashakni bildiradi va h.k.).

i - chegara shartlari indeksi- to'yimli elementlar nomeri (masalan $i=1$ bo'lsa, modeldagi 1-shart bo'lib, ratsion tarkibidagi ozuqa birligining yetarli bo'lishligini ta'minlash mumkin va h.k.)

x_j - ratsiondagi j -chi tur ozuqaning miqdorini ifodalovchi o'zgaruvchi.

a_{ij} - ratsion tarkibidagi j -tur ozuqadagi i -chi to'yimli elementlar miqdori.

w_{ij} -proporsiya koeffitsiyenti

c_j - bir birlik j -tur ozuqaning narxi

$B_i^{\min}, B_i^{\max}$ -ratsionda talab etiladigan i -chi tur to'yimli moddaning minimal va maksimal miqdori

$A_i^{\max} - A_i^{\min}$ -ratsiondagi alohida ozuqa guruxlarining eng minimal va maksimal miqdori

N -ratsion tarkibiga kirgan ozuqalar soni

N_1 - ratsion turiga alohida guruxga mansub ozuqalar soni

M_1 -ratsion tarkibiga kiruvchi to'yimli moddalar bo'yicha chegara shartlari soni.

M_2 -ratsion tarkibiga kiruvchi quruq moddalar bo'yicha chegara shartlari soni

M_3 -ratsion tarkibiga kiruvchi alohida olingan ozuqa guruxlari bo'yicha chegara shartlari soni

M_4 – ratsiondagi alohida guruxlar ichidagi ozuqa miqdorining tizim massasi nuqtai nazardan nisbati bo'yicha chigara shartlari nomerlari to'plami .

Endi shular asosida masalaning barcha turdagi va barcha maqsadlarda boqilayotgan chorva mollari uchun umumiy holdagi sturukturaviy modelini tuzamiz:

Masalaning maqsad funksiyasi –ya'ni optimallik mezoni -bu shunday ratsion tarkibini aniqlash talab etiladiki natijada ratsionning umumiy tannarxi minimum bo'lsin,ya'ni:

$$Z = \sum C_j X_j \rightarrow \min \quad (1)$$

Bu yerda S_j -bir birlik j -ozuqaning narxi,so'm; X_j –ozuqa tarkibiga kiruvchi shu turdagi ozuqa miqdori, kg;

Shu bilan birga quyidagi chegara shartlari ham bajarilsin:

1) Rasionda to'yimli moddalar miqdori kerakli minimal normasidan kam bo'lmasin:

$$\sum_{j \in N} a_{ij} x_j \geq B_i^{\min} \quad (i \in M_1) \quad (2)$$

2) Rasiondagi quruq moddalar miqdori mumkin bo'lgan normadan ko'p bo'lmasin :

$$\sum_{j \in N} a_{ij} x_j \leq B_i^{\max} \quad (i \in M_2) \quad (3)$$

3) Rasiondagi xar bir ozuqa guruxlari miqdori chegaralangan bo'lish kerak.

$$A_i^{\min} \leq \sum_{j \in N} a_{ij} x_j \leq A_i^{\max} \quad (i \in M_3) \quad (4)$$

4) Aloxida gurux tarkibiga kiruvchi ba'zi ozuqalar miqdori chegaralangan bo'lishi shart.

$$\sum_{j \in N} X_j \stackrel{\geq}{\leq} W_{ij} \sum_{j \in N} X_j \quad (i \in M_4) \quad (5)$$

Qaralayotgan konkret obyekt xususiyatiga qarab, yana boshqa shartlarni ham qo'shish mumkin. Shunday qilib, matematik nuqtai nazardan optimal ozuqa ratsionini tuzishda masalani quydagicha ifodalash mumkin:

$X_1 X_2 X_3 \dots X_n$ —noma'lumlarning shunday qiymatlarini topish talab etiladiki, natijada (1) maqsad funksiyasi minimumga erishsin va shu bilan birga (2)-(5) shartlari bajarilsin. Bu esa qo'yilgan masalaning matematik modelidir. Albatta bu (1)- (5)masala umumiy nazariy sturukturaviy matematik model , konkret sharoitlarda ular yanada aniqlashtiriladi, yangi chegara shartlari qurilishi mumkin yoki soddalashtirilishi xam mumkin.

3.3. Pastdarg'om tumani dehqon xo'jaliklari misolida sog'in sigirlar uchun optimal ratsion tuzish masalasining matematik modeli

Ma'lumki turli xil chorva mollari uchun yoki turli maqsadlarda parvarishlanayotgan hayvonlar uchun turli tarkibdagi va miqdordagi ratsion tuziladi. Ratsion tuzishda birinchidan hayvon uchun kerakli bo'lgan ozuqa moddalaridan yetarli miqdorda berish, hayvonlarning fiziologik talablarini qondirish, mahsuldorligini oshirish kabi omillar e'tiborga olinadi. Shu bilan birga qaralayotgan sharoitdagi mavjud ozuqa turlari va ularning xo'jalikdagi zaxira miqdorlari va narxlari ham hisobga olinadi. Ratsionni xar hil tarkibda turlicha miqdordagi ozuqalar bilan tuzish mumkin. Ammo ular ichidan ko'zlangan

maqsadga erishish, eng maqbul variantini tanlab olish masalasi muhimdir. Ushbu masalalani sog'in sigirlar misolida qarab chiqamiz. Malumki sog'in sigirlar uchun ratsion tuzishda albatta birinchidan uning fiziologik talablarini qondirish talab etiladi va ma'lum mahsuldorlikni ta'minlash, sutning tarkibidagi yog'lik darajasining normadan kam bo'lmashligi va hakovalar e'tiborga olinadi va albatta tuzilgan ratsionning narxi arzon bo'lishi talab etiladi. Masalani quyidagicha variantda qaraymiz. Xar kuni 33 l dan sut beradigan, sutning yog'lilik darajasi 3,0% dan kam bo'lmagan va tirik vazni 450-500 kg bo'lgan sog'in sigir uchun optimal ratsion tuzish talab etiladi. Sigirning mahsuldorligi va fiziologik xolatini saqlash uchun, kunlik ratsionda kamida 17,5 kg ozuqa birligi, 2193 g hazm bo'ladigan protein, 242 g kalsiy 80,5 g fosfor, 500 mg karatin bo'lishi shart. Ratsiondagi quruq moddalar miqdori 20 kg dan oshmasligi kerak. Pastdarg'om tumani dehqon xo'jaliklarida g'amlangan yoki sotib olinishi mumkin bo'lgan 8 xil ozuqaga imkoniyat bor bo'lib, ularning tarkibidagi to'yimli moddalar miqdori va tannarxi quyidagi jadvalda keltirilgan. Pastdarg'om tumani dehqon xo'jaliklari imkoniyatlari va zootexniya talablariga asosan alohida olingan yoki bir gurux ozuqalarning ratsiondagi miqdorlariga ham nisbiy talablar qo'yish mumkin. Jumladan konsentratlangan ozuqalar umumiy ozuqa miqdorining 12% dan 20% igacha, dag'al xashaklar 30% dan 45% gacha, shirali ozuqalar 25% dan 40% gacha, ildiz mevalilar 4% dan 8% gacha tashkil etishi belgilangan. Bundan tashqari konsentratlarning kamida 35% ni kunjara tashkil etsin. Shirali ozuqalarning kamida 45% ni beda tashkil etsin.

Ushbu berilgan masalani yechish uchun iqtisodiy-matematik usullar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalanamiz. Ushbu masalaning matematik modeli chiziqli dasturlash masalalariga keltiriladi. Ya'ni modelda qatnashayotgan barcha matematik ifodalar izlanayotgan noma'lumlarga nisbatan 1-darajali ifodalardan, ya'ni tenglama yoki tengsizliklar tizimidan iborat bo'ladi. Qo'yilgan masalaning optimallik me'zoni sifatida ratsionni tashkil etuvchi oziqalar tannarxining minimumini olamiz. Ushbu masalani yechish uchun albatta ratsion tarkibiga kiruvchi ozuqalar tarkibidagi to'yimli moddalar miqdori ma'lum

bo'lishi kerak. Ushbu ma'lumotlar adabiyotlarda keltirilgan me'yoriy hujjatlar asosida olingan ushbu jadvalda keltirilgan.

3.3.1- jadval

Ratsion tarkibidagi ozuqalar va ulardagi to'yimli moddalar*

№	Ozuqa	1 kg ozuqa tarkibi						1 kg ozuqa ning tannarxi, so'm
		Ozuqa birligi, kg	Hazm bo'ladigan protiyen,g	Kalsiy, g	Fosfor, g	Karatin, mg	Quruq modda, Kg	
1	Omuxta yem	0,9	112	15	13	-	0,87	750
2	Kunjara	1,1	317,2	44	8,0	-	0,5	900
3	Ko'k beda	0,19	43	3,6	0,7	36	-	400
4	Ko'k makka	0,2	45	3,5	0,5	35	-	400
5	Pichan	0,42	48	6	2,1	15	0,85	300
6	Somon	0,41	51,3	11,9	5,0	3	0,9	200
7	Makka silosi	0,2	14	1,5	0,5	15	0,26	400
8	Xashaki lavlagi	0,12	9	0,4	0,4	-	0,13	500

*Manba: Me'yoriy hujjatlar asosida olindi

Masala iqtisodiy matematik modelini tuzish uchun avvalo quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

X1 – omuxta yem miqdori, kg;

X2- kunjara miqdori,kg;

X3 – ko'k beda, kg;

X4- ko'k makka,kg;

X5-pichan, kg;

X6 - somon, kg;

X7 –makka silosi, kg

X8 - xashaki lavlagi, kg;

X9- ratsion umumiy miqdori, kg.

Masalaning shartiga ko'ra va me'yoriy ma'lumotlarga asosan masalaning sonli modelini tuzamiz

1) Ozuqa birligi kamida 17,5 kg bo'lish sharti:

$$0,9 \cdot X_1 + 1,1 \cdot X_2 + 0,19 \cdot X_3 + 0,2 \cdot X_4 + 0,42 \cdot X_5 + 0,41 \cdot X_6 + 0,2 \cdot X_7 + 0,12 \cdot X_8 \geq 17,5,$$

2) xazm bo'ladigan protein bo'yicha shart:

$$112 \cdot X_1 + 317,2 \cdot X_2 + 43 \cdot X_3 + 45 \cdot X_4 + 48 \cdot X_5 + 51,3 \cdot X_6 + 14 \cdot X_7 + 9 \cdot X_8 \geq 2193,$$

3) kalsiy bo'yicha shart:

$$15 \cdot X_1 + 4,4 \cdot X_2 + 3,6 \cdot X_3 + 3,5 \cdot X_4 + 6 \cdot X_5 + 12,9 \cdot X_6 + 1,5 \cdot X_7 + 0,4 \cdot X_8 \geq 242,$$

4) fosfor bo'yicha shart:

$$13 \cdot X_1 + 8 \cdot X_2 + 0,7 \cdot X_3 + 0,5 \cdot X_4 + 2,1 \cdot X_5 + 5,0 \cdot X_6 + 0,5 \cdot X_7 + 0,4 \cdot X_8 \geq 80,5,$$

5) Karatin bo'yicha shart

$$36 \cdot X_3 + 35 \cdot X_4 + 15 \cdot X_5 + 3 \cdot X_6 + 15 \cdot X_7 \geq 500,$$

6) Quruq moddalarning xajmi buyicha shart:

$$0,87 \cdot X_1 + 0,5 \cdot X_2 + 0,85 \cdot X_5 + 0,9 \cdot X_6 + 0,26 \cdot X_7 + 0,13 \cdot X_8 \leq 20,$$

7) Zootexniya talabi buyicha shartlar:

A) umumiy mikdori

$$X_1 + X_2 + X_3 + X_4 + X_5 + X_6 + X_7 + X_8 = X_9,$$

B) konsentratlar bo'yicha shartlar

$$X_1 + X_2 \geq 0,12 \cdot X_9,$$

$$X_1 + X_2 \leq 0,20 \cdot X_9,$$

D) dag'al xashaklar:

$$X_5 + X_6 \geq 0,30 \cdot X_9,$$

$$X_5 + X_6 \leq 0,45 \cdot X_9,$$

E) shirali ozuqalar bo'yicha:

$$X_3 + X_4 + X_7 \geq 0,25 \cdot X_9,$$

$$X_3 + X_4 + X_7 \leq 0,4 \cdot X_9,$$

F) ildizmevalilar bo'yicha

$$X_8 \geq 0,04 \cdot X_9,$$

$$X_8 \leq 0,08 \cdot X_9,$$

G) konsentratlarning kamida 35% i kunjara bo'lsin degan shart:

$$X_2 \geq 0,35 \cdot (X_1 + X_2) \quad \text{yoki}$$

$$0,7 \cdot X_2 - 0,3 \cdot X_1 \geq 0.$$

I) Shirali ozuqalarning kamida 20% ni beda tashkil etishi sharti:

$$X_3 \geq 0,2(X_3+X_4+X_8) \quad \text{yoki}$$

$$0,8*X_3 - 0,2*X_4 - 0,2*X_8 \geq 0.$$

J) Shirali ozuqalarning kamida 20% ni beda tashkil etishi sharti:

$$X_4 \geq 0,2(X_3+X_4+X_8) \quad \text{yoki}$$

$$0,8*X_4 - 0,2*X_3 - 0,2*X_8 \geq 0.$$

Maqsad funksiya, ya'ni ratsionning tannarxining minimum bo'lishi sharti:

$$S = 750*X_1 + 900*X_2 + 400*X_3 + 400*X_4 + 300*X_5 + 200*X_6 + 400*X_7 + 500*X_8 \rightarrow \min$$

Yuqorida keltirilganlar aniq misoldagi masalaning sonli matematik modelidir. Ushbu madelni ixcham ko'rinishga keltirish uchun uni jadval ko'rinishda yozamiz, ya'ni masalaning matrisali modelini tuzamiz.

3.3.2- jadval

Sog'in sigirlar uchun optimal ratsion tuzish masalaning matrisali modeli*

№	Shartlar	X1 Omuxta yem	X2 Kunjara	X3 Ko'k beda	X4 Ko'k makka	X5 Pichan	X6 somon	X7 Makka silosi	X8 Xashakil avllagi	X9 Jami ratsion	Shart belgisi	Shart miqdori
1	Ozuqa birligi, kg	0,9	1,1	0,19	0,2	0,42	0,41	0,2	0,12	-	>=	17,5
2	Protein, g	112	317,2	43	45	48	51,3	14	9	-	>=	2193
3	Kalsiy, g	15	4,4	3,6	3,5	6	12,9	1,5	0,4	-	>=	242
4	Fosfor, g	13	8	0,7	0,5	2,1	5,0	0,5	0,4	-	>=	80,5
5	Karatin, mg	-	-	36	35	15	3	15	-	-	>=	500
6	Quruq ozuqa, kg	0,87	0,5	-	-	0,85	0,9	0,26	0,13	-	>=	20
7	Rasion miqdori, kg	1	1	1	1	1	1	1	1	-1	=	0
8	Konsentrat, min	1	1	-	-	-	-	-	-	-0,12	>=	0
9	Konsentrat, max	1	1	-	-	-	-	-	-	-0,20	<=	0
10	Dag'al xashak, min	-	-	-	-	1	1	-	-	-0,3	>=	0
11	Dag'al xashak, max	-	-	-	-	1	1	-	-	-0,45	<=	0
12	Shirali ozuqa, min	-	-	1	1	-	-	1	-	-0,25	>=	0
13	Shirali ozuqa, max	-	-	1	1	-	-	1	-	-0,40	<=	0
14	Ildizmeva, min	-	-	-	-	-	-	-	1	-0,04	>=	0
15	Ildizmeva, max	-	-	-	-	-	-	-	1	-0,08	<=	0
16	Kunjara, min	-0,3	0,7	-	-	-	-	-	-	-	>=	0
17	Shirali(beda)	-	-	0,8	-0,2	-	-	-0,2	-	-	>=	0
18	Shirali (makka)	-	-	-0,2	0,8	-	-	-0,2	-	-	>=	0
Rasion tannarxi,so'm		750	900	400	-	300	200	400	500	-	→	min

*Manba: Me'yoriy xujjatlar va tuman pasporti asosida

4. MASALANI AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA YECHISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI

Yuqorida qayd etilgan masalaning tuzilgan matematik modeli chiziqli dasturlash masalasiga mansub bo'lib, u odatdakeng tarqalgan Simpleks usul yordamida yechiladi. Ushbu usulning mohiyati avvalo shartlarni qanoatlantiruvchi mumkin bo'lgan tayanch yechim tanlab olinadi, ya'ni qo'yilgan barcha shartlarni qanoatlantiruvchi ixtiyoriy yechim olinadi. Bu yechim maxsus Simpleks jadvallar yordamida ketma-ket yaxshilanib boriladi. Bir necha iterasiyadan ya'ni qadamdan keyin muqobil yechim topiladi. Odatda model tarkibidagi chegaralar soni va noma'lumlar soni nisbatan ko'p bo'lganda uni qo'lda yechish juda ham qiyin va ko'p mexnat talab etadi. Bunday hollar uchun Simpleks usul uchun dasturlar tuzilgan va ular yordamida masalani yechish maqsadga muvofiqdir. Bitiruv malakaviy ishimizda qaralayotgan misolda noma'lumlar soni 9 ta va chegara shartlari 18 tadan iborat. Buni yechishda biz PER (iqtisodiy hisoblashlar majmuasi) standart dasturidan foydalanamiz. Ushbu dasturdan foydalanishda quyidagicha amallar bajariladi. Avvalo dastur joylashgan «Papka» ichiga kiriladi. Undagi per1.exe dasturini ishga tushiramiz. Unda muloqat oynasi hosil bo'ladi. Bunda dasturda bajariladigan asosiy ishlar – opsiyalar ruyxati chikadi. Jumladan: «Yangi masalani kiritish», «Diskdan masalani o'kish», «Masalani yechish», «Ma'lumotlarni diska saklash», «Taxrirlash», «Chikish».

Dastlab masalani yechishda avvalo «Yangi masalani kiritish» bo'limiga kiramiz. Hosil bo'lgan muloqat oynasida so'ralgan ma'lumotlarni kiritamiz, ya'ni minimumga yechilayotgani uchun -2 ni, nomalumlarni soni -8 ni, chegaralar soni – 17 ni, va standart belgilashdan foydalanganligimiz uchun – u(ya'ni ha) ni kiritamiz.

Navbatdagi muloqat oynasidan maqsad funksiya va chegara shartlari koeffisiyentlarini berilgan qolib(shablon) asosida kiritamiz. Keyin asosiy menyuga chiqib yangi nom masalan Ratsion nomi bilan saqlab qo'yamiz. Agar biror o'zgartirishlar talab etilsa «Taxrirlash» bo'limidan kiritilgan mikdorlarni

o'zgartirish yoki yangi shartlar qo'shish yoki olib tashlash ishlarini kerakli vaqtlarda osongina amalga oshirish mumkin.

Masalani yechish uchun biz asosiy menyudan «Masalani yechish» bo'limidan foydalanib yechish usullari variantlarini tanlaymiz. Dastur ishlagandan keyin ekranda «Mumkin bo'lmagan yechim» yoki «muqobil yechim topildi» degan xabar chiqadi. Birinchi xolda dastlabki ma'lumotlarga tegishli o'zgartirishlar kiritib yana masalani yechamiz. Ikkinchi xolda esa muqobil yechim natijalarini chop etib olamiz. Bizning misolimizda 34 iterasiyadan keyin muqobil yechim topildi va natijada:

$S_{opt.} = 16298,88$ so'm va noma'lumlarning quyidagi qiymatlari topildi
 $X_1=1,17$, $X_2=6,35$, $X_3=6,32$, $X_4=2,33$, $X_5=7,91$, $X_6=9,0$, $X_7=3,0$, $X_8=1,5$ va $X_9=37,6$ kg.

Sog'in sigirlar uchun optimal ratsion tarkibi quyidagi jadvalda keltirilgan.

3.3.3-jadval

Sog'in sigirlar uchun optimal ratsion tarkibi*

№	Ozuqa turi	Belgilar	O'lchov birligi	Miqdori, kg	Tannarxi, so'm
1	Kombikorma (omuxta yem)	X1	Kg	1,17	877,5
2	Kunjara	X2	Kg	6,35	5715
3	Ko'k beda	X3	Kg	6,32	2528
4	Makka (ko'k)	X4	kg	2,33	1048,5
5	Pichan	X5	Kg	7,91	2373
6	Somon	X6	Kg	9,0	1800
7	Makka silosi	X7	Kg	3,0	1200
8	Xashaki lavlagi	X8	Kg	1,5	750
Jami		X9	Kg	37,6	16296,88

*Manba: Taklif etilgan usulga ko'ra olingan natija

Ushbu masalani matematik modellashtirish usulida yechish katta iqtisodiy samara beradi. Olingan optimal yechim sog'in sigirlarning fizologik talablarini

qondiradi va ko'zlangan miqdordagi mahsulot berishga imkoniyat yaratiladi. Rasionning tannarxi eng arzon bo'ladi. Aytaylik ushbu olingan yechim variantidan boshqa variant olsak uning tannarxi ko'payadi. Masalan 16296,88 so'm o'rniga 19500,67 so'mni tashkil etadi. Kunlik ratsionda farqi 3201,79 so'm ko'p bo'ladi. Agar ushbu ratsionni 100 kunga qo'llasak 320179 so'm iqtisodiy samara beradi.

Ushbu jadvaldan ko'rinadiki agar ushbu ratsionni taxminan 100 kunga qo'llasak. Xar bir sog'in sigir uchun fermada 117 kg kombikorma, 635 kg kunjara, 632 kg ko'k beda, 233 kg makka, 791kg pichan, 900 kg somon, 300 kg maka silosi va 150 kg xashaki lavlagidan iborat ozuqa bazasi bo'lishi talab etiladi.

5.QISHLOQ XO'JALIK KORXONALARIDA HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI

Respublikamizda xalq xo'jaligida ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan kishilarning, jumladan qishloq xo'jaligi sohasida ishlayotgan ishchilarning ish faoliyati yuritishi jarayonlarini xavfizlantirish va ularga qulay sharoit yaratish ishlari muxum muammolardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham Respublikamizda bu sohaga katta e'tibor berilmoqda. Jumladan Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 6 iyundagi 286-son qarori bilan tasdiqlangan Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risida Nizom ishlab chiqilgan.

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi hududida mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda, shuningdek, mehnat shartnomasi bo'yicha ishlayotgan ayrim fuqarolarda mehnat faoliyati bilan bog'liq holda yuz bergan hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olishning yagona tartibini belgilaydi.

Nizomda belgilanganidek Ishlab chiqarishdagi har bir baxtsiz hodisa haqida jabrlanuvchi yoki guvoh darhol bo'linma (sex) rahbariga xabar berishi kerak, u esa:

jabrlanuvchiga zudlik bilan birinchi yordam ko'rsatishi va uni tibbiy-sanitariya qismiga yoki boshqa davolash muassasasiga yetkazishni tashkil etishi;

tekshirish komissiyasi ish boshlanishiga qadar ish joyidagi vaziyatni va jihozlar holatini hodisa yuz bergan daqiqada qanday bo'lsa, shundayligicha (agar bu atrofdagi xodimlar hayoti, salomatligiga tahlika solmayotgan bo'lsa va halokatga olib kelmasa) saqlab qolishi;

baxtsiz hodisa yuz bergan joydagi korxona (sex) rahbari darhol hodisa to'g'risida ish beruvchiga va kasaba uyushmasiga yoki korxona xodimlarining boshqa vakillik organiga xabar qilishi shart.

Ekologik tanglik xavfi XX asr davomida texnikaning rivoji, xalq xo'jaligini va kundalik turmushni kimyolashtirish, Yer yuzida aholi sonining keskin ko'payishi

oqibatida tabiat bilan inson o'rtasidagi muvozanatning buzilishi, yer, suv va havoning inson hayotiga zararli darajada ifloslanishi natijasida paydo bo'ldi.

Shu bilan birga Respublikaning ekologik holati yomonlashib bormoqda. Bunga ishlab chiqarish kuchlarini taraqqiy ettirishdagi va joylashtirishdagi xatoliklar sabab bo'lmoqda. Shuningdek, paxta ekishdagi yakka hokimlik ekologik muammolarga ta'sir etgan. Fanda yerlarning 50% gacha chigit ekish tutilgan, vaholanki, Respublikada 1989 yilda paxtakor xo'jaliklarda chigit ekish 73,4% ni tashkil qilgan. Bu esa tuproqning oriqlab ketishiga unumdorlikning pasayishiga olib keldi.

Suvdan foydalanishda, qishloq xo'jaligini kimyolashtirishda yo'l qo'yilgan xatoliklar yerlarni tabiiy cho'lga aylanishi va sho'rlanishi, ichimlik suvi sifatining buzilishiga olib keladi.

Chorvachilikda yong'in xavfsizligiga uning raxbarlari, brigadir, ferma va uchastka boshliqlari javob beradilar. Yong'inga qarshi tadbirlarni ishlab chiqarishda, nazorat qilishda va bajarishda ko'ngilli o't o'chirish drujinalar va xizmatchilar ishtirok etadilar. Hamma chorva xodimlari yong'inlarning sabablarini bilishlari kerak. Yong'in xavfsizligi qoidalarini yaxshi bilishlari hamda yong'in o't o'chirish vositalari bilan foydalana bilishlari kerak.

Xar bir fermada ko'zga ko'ringan joyda yong'in xavfsizligi qoidalarini osib qo'yishlari kerak, xamda yong'in xavfsizligiga javobgar shaxsning F.I.Sh maxsus jadvalda ko'rsatiladi. Xar bir ferma, kompleksda yong'inga qarshi past (tashkil qilinib) unda (belkurak) lopata chelaklar, boltalar, ilgaklar kamida ikkita ishga tayyor bo'lgan o't o'chirish nasos ustanovkasi atrofga shovqin bilan xabar beradigan qo'ng'iroq (kalokol) yoki rels bo'lishi kerak.

Bir necha ferma bo'lgan taqdirda ularning xar birining oldiga aloxida shit o'rnatib unga chelaklar, o't o'chirgich, belkurak o'rnatib, yoniga qum solingan yashik va suv solingan 250 litr hajmli bochka qo'yiladi. Xonaning ichiga xar 30 m shanga o'xshagan suv solinadi bochkalar va chelaklar qo'yiladi. Agarda fermaga suv berishni mexanizasiyalangan bo'lsa, u xolda suv beradigan yong'in kran iva gidranlar o'rnatiladi ular bo'lmaganda atrofi o'rab qo'yilgan suv xovuzlari ko'za

tutiladi. Hayvonlarning yem xashaklari qo'yiladigan joylarda suv solingan bochkalar bo'lishi kerak. Fermalarda yong'in chiqish sabablari quyidagilar bo'lishi mumkin, imorat omborlarining noto'g'ri planlashtirilganligi, qurilish imoratlarining oraliqlari yetarli bo'lmasdan va shamollarni xisobga olmasdan olov bilan noto'g'ri foydalanish isitish asboblarning ishlamasliklari, ichki yonuv dvigatellari ishlashida uchqun chiqishi, elektr jixozlarining buzuvchiligi, ulardan noto'g'ri foydalanish quruq yem xashakli o'z – o'zidan yonishi, chaqmoq Xonalarda hayvonlarni gurux – gurux bo'lib qo'yiladigan maxsus qurilma U GOS – 100 dan foydalanish kerak. Uning yordamida 6 – 8 sekundda hayvonlarni yechib ozod qilish mumkin.

Jamiyat hayoti izchil ilmiy negizda tashkil qilinib, u fan tavsiyalari va tibbiyot qonunlari asosida olib borilsa, ekologik tanglik xavfini kamaytirish mumkin. Hozirgacha insoniyat, ko'proq, tabiatning buzg'unchisi, erkatoyi bo'lgan. Endi esa, u atrof-muhitning tirishqoq xizmatkoriga, ishonchli ishtirokchisiga aylanishi, har bir qadamida tabiatni, atrof-muhitni tozalash, toza tutish qoidasiga rioya qilishi zarur. Bu zaruriy shart buzilsa, insoniyat o'z boshiga yangi balolar, yangi kasalliklar, xastaliklar, nogironliklarni orttirishi shubhasizdir. Bunday fikr mavjud voqeya va hodisalarda isbotlanmoqda. Shu to'g'rida so'zlar ekan, O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov bunday dedi: "Dunyoda insonning biologik tur sifatida yashashiga bevosita xavf-xatar mavjud. Ya'ni yalpi yadro urushi xavfi ancha kamaygan bo'lsa ham, ekologik tanglik xavfi, biogenetik buzilishlar xavfi tahlikali holatda saqlanib qolmoqda".

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bitiruv malakaviy ishi qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishning eng dolzarb tarmog'i chorva mahsulotlari yetishtirishda chorva mollari uchun optimal ratsion tuzish masalasiga bag'ishlangan. Dehqon xo'jaliklardagi sog'in sigirlar misolida ratsion tuzishda yangi zamonaviy usullarni qo'llash xo'jalik iqtisodiyotiga katta foyda keltiradi. Quyida bitiruv malakaviy ishni bajarish jarayonida hosil bo'lgan quyidagi muhim xulosalarni keltiramiz:

1. Chorva mollariga ratsion tuzishda matematik modellashtirish va zamonaviy axborot-texnologiyalar usullarini qo'llash xo'jalikka iqtisodiy foyda keltiradi.

2. Chorva mollari uchun beriladigan ozuqa xarajatlari arzonlashadi. Biz misolda qaragan 1 ta sog'in sigir uchun bir kunlik ratsionidagi ozuqa narxi 16296,88 so'mni tashkil etadi.

2. Dehqon xo'jaligi imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda mavjud ozuqa zaxiralaridan optimal foydalaniladi.

3. Dehqon xo'jaligi sog'in sigirlarning mahsuldorligi oshadi va fizialogik talabi to'lliq qondiriladi .

4. Iqtisodiy matematik modellashtirish usulini qo'llash xo'jalik iqtisodiyotiga ta'sir etuvchi barcha omillarni, jumladan mavjud ozuqa zaxiralarini va turlarini hisobga olish, o'zgartirish va mintiqaviy shart sharoitlarini ham to'lliq hisobga olish imkoniyatini beradi.

5. Matematik modellashtirish usullarini qo'llash konkret sharoitlardan kelib chiqadigan turli qo'shimcha shartlarni ham hisobga olish va standart dasturlar yordamida hech kanday sarf xarajatlarsiz ko'plab variantlarda hisoblab, ular ichidan eng optimalini tanlash imkoniyatini beradi.

6. Masala uchun tuzilgan iqtisodiy matematik model tarkibiga o'zgartirish kiritish imkoniyati mavjud. Jumladan ozuqa turlari tarkibi va sonini o'zgartirish ozuqa narxlarini o'zgartirish yoki ularni miqdorini chegaralash, yangi qo'shimcha shartlar qo'yish yoki ba'zilarini olib tashlash imkoniyatlari mavjud.

7. Ushbu bitiruv malakaviy ishda taqdim etilayotgan iqtisodiy matematik model va masala yechish dasturini boshqa turdagi chorva mollari uchun ham osonlikchaqo'llash mumkin.

Shu bilan birga quyidagi takliflarni ham keltiramiz:

1. Mulk shaklidan qat'iy nazar barcha chorvachilik xo'jaliklardagi chorva mollarini ushbu taklif etilayotgan iqtisodiy matematik modellashtirish usullari va kompyuter dasturlari yordamida hisoblangan maqbulratsion asosida oziqlantirish maqsadga muvofiqdir.

2. Chorva mollari uchun optimal ratsion tuzish masalasining modelini tuzishda albatta dehqon xo'jalikdagi yoki shu mintaqadagi ozuqa turlari va ularni zaxiralarini ham e'tiborga olish lozim.

3. Bu masalani yechishda albatta dehqon xo'jaligi mintaqaviy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda ba'zi iqtisodiy talablarini ham e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

4. Xo'jaliklarda ish yuritishida va iqtisodiy masalalarni yechishda yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2002.
2. O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi. -T.: O'zbekiston, 1998.
3. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, -T.: O'zbekiston, 1998.
4. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Qishloq xo'jalik Kooperativi (Shirkat xo'jaliklari) to'g'risida. -T.: O'zbekiston, 1998.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. Qishloq xo'jaligi islohatlarini chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida. // Xalq so'zi. 2003.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora tadbirlari to'g'risida. 18.11.2008.PF-4053.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida. 20.01.2009.PQ-1041.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili Davlat dasturini kuchga kiritish to'g'risida. 26.01.2009.PQ-1046.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida. 26.01.2009. PQ-1047.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisining Qarori. 2008 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risida. 13.02.2009.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora tadbirlari to'g'risida. 23.03.2006.PQ-308.
12. Karimov I.A. Mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi. 17.01. 2014.

13. Karimov I.A. 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yo'llari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.// Xalq so'zi. 18.01.2013.
- 14.Karimov I.A. 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekiston niijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.// Xalq so'zi. 20.01.2012.
15. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligin iyanada yuksaltirishdir. – Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi //Xalq so'zi.30.01.2010.
16. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi//Xalq so'zi.28.01.2010.
- 17.Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.:O'zbekiston, 2011.
18. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
- 19.AbruyevI., UrdushevX. Ozuqa ratsionini optimallashtirish. Uslubiy qo'llanma. Samarqand: SamQXI, 2001.
20. Богданов Г.А. Кормление сельскохозяйственных животных. Учебник. - М.:Агропромиздат, 2000.
21. Гайдук В.И. Региональный рынок продукции животноводства: экономические проблемы развития.- Краснодар: КГАУ, 2000. -311 с.
22. Гайдук В.И., Олечкин В.Ф. Конкурентоспособность производства продукции животноводства. - Краснодар: КГАУ, -2000. -119 с.
23. Jo'rayev F. J. Qishloq xo'jalik korxonalarda ishlab chiqarishni tashkil etish. Darslik -T.: Istiqlol, 2004.

24. Ismoilov A., Murtazayev O. Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti. Darslik. –T.: Moliya, 2005.
25. Murtazayev O., G'aniyev I., Hasanov Sh., Axrorov F. Agrar siyosat va qishloq xo'jalik bozorlari. –Samarqand: N.Doba, 2009.
26. Sanayev G'. N. Fermer xo'jaliklarida sut go'sht mahsulotlari xarajatlarini hisobga olish, ularning tannarxini hisoblashni takomillashtirish. –T.: 2007. -119 b.
27. Secheva N.I., Baltayeva L.R., Ishnazarov A.I. Kompyuter texnologiyalari asosida firma va tarmoqlarda yuklarni tashishni modellashtirish va boshqarish. O'quv qo'llanma. –T.: TDIU, 2013.
28. Sattorov A. Informatika va axborot texnologiyalari. –T.: O'qituvchi, 2002.
29. Xakimov R. O'zbekiston Respublikasi chorvachilik mahsulotlari bozori va tarmoqda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'nalishlari. –T., 2001.
30. Xamraqulov R., Kariboyev K. Qishloq xo'jalik hayvonlarini oziqlantirish. T.: O'zbekiston, 2002.
31. Xoshimov M.Ye., Tansiboyev B.M. Qishloq xo'jalik chorva mollarini oziqlantirish. -T.: O'zbekiston, 2001.
32. Internet saytlari:
- 32.1. www.president.uz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti portal
- 32.2. www.lex.uz –qonun hujjatlari sayti
- 32.3. <http://gov.uz/uz/press/economics/10255>. O'zbekiston Respublikasi Hukumati portal.
- 32.4. www.agro.uz – Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi sayti
- 32.5. www.edu.uz - Oliy ta'lim sayti
- 32.6. www.ziyo.net – Ziyonet ta'lim portal
- 32.7. www.livestock.uz – O'zbekiston chorvachiligi sayti
- 32.8. www.samqxi.uz – Samarqand qishloq xo'jalik instituti sayti
- 32.9. www.uz.bir.uz, – Biznes informasion resurslar saytlari
- 32.10. www.uza.uz – O'zbekiston Axborot agentligi sayti
- 32.11. www.uzreport.com – biznes hisobot portal

ILOVA

INTERNET MA'LUMOTLARI

SIGIRLARNI OZIQLANTIRISH VA ULARNING FIZIOLOGIYASI

<http://bizplan.uz/industries/milk/1612/>

Sigirlarni oziqlantirish va ularning fiziologiyasi bo'yicha tushuntiruvchi maqola. Sigirlarni jinsi, yoshi va mahsuldorligiga ko'ra oziqlantirish. Laktasiya davrlari va ratsionlar.

Zamonaviy fermalarda sog'in sigirlar bir necha guruhlariga bo'lingan bo'lib, ularning har biri alohida og'ilxonalarda saqlanib, alohida ratsion yordamida boqiladi.

Ratsion sigirlarning mahsuldorlik darajasiga muvofiq hisoblanadi va maksimal darajada foyda olishni ta'minlashi kerak. Odatda bunday ishlab chiqarish guruhlari to'rtta bo'ladi: 2 guruh kam sut beruvchi sigirlar

Sog'in sigirlarga fermada oziq berish haqida ba'zi mulohazalar.

Sigirlarni oziqlantirish guruhlari soni nafaqat iqtisodiy jihatdan o'zini oqlash, balki fermaning moddiy bazasi bilan ham belgilanadi. Alohida ratsion olayotgan har bir sigir guruhi uchun alohida sug'orish, tozalash va boshqa zarur tizimlarga ega bo'lgan alohida og'ilxona zarur. Bunga ferma sharoitlarida hamisha ham erishib bo'lmaydi. Ammo shunday bo'lsada, sog'in sigirlardan maksimal miqdorda sut olishni istagan fermalarga mavjud 4-5 asosiy guruhlariga beriladigan (kam sut beruvchi, o'rtacha sut beruvchi, ko'p sut beruvchi, o'ta ko'p sut beruvchi guruhlar) ratsionlardan tashqari birinchi marta bolalagan sigirlar uchun alohida og'ilxonaga ega bo'lish tavsiya qilinadi. Faqat birinchi marta tuqqan sigirlarni alohida saqlagan va oziqlantirgan holatda butun chorva podasida genetik jihatdan maksimal bo'lgan darajada sut sog'ib olishga erishish mumkin.

guruhi (sigirlar umumiy sonidan 15-30% kiradi) va yana 2 guruhdan (o'rtacha sut beruvchi va yuqori darajada sut beruvchi guruh) iborat mahsuldor guruh.

Sigirlarning me'yoridagi bo'g'ozlik muddati 270-285 kunni tashkil qiladi (bu muddat o'rtacha 278 kunga teng). Podani me'yorida ko'paytirish va maksimal darajada mahsuldorlikka erishish uchun sigir yiliga bir marta bolalashi va keyingi

305 kunda muttasil ravishda sut berishi lozim. Shu sababli sigir bolalagandan keyin o'rtacha 60-90 kundan keyin qochishi kerak bo'ladi.

Sigir bolalashiga yaqin muddat (maxsus ratsion)

Sigir bo'g'ozligining oxirgi 60 kunida (bu muddatda homila tezkor ravishda o'sadi) alohida parvarishga muhtoj bo'lib, keyingi laktasiya (sut berish) davriga tayyorgarlik ko'radi. Ushbu so'nggi kunlarda (218-278-kunlar) sigirlarning ozuqa ehtiyojlari energetik protein jihatdan minimal darajada (quruq ozuqada 11-12% miqdorda) bo'ladi.

Odatda quruq ozuqali ratsion quyi energetik protein tarkibi jihatidan eng arzon ham hisoblanadi. Bundan tashqari, bolalash muddati yaqinlashgan hajm va energetik quvvat jihatdan ham cheklangan bo'lishi kerak. Ushbu muddat davomida sigirlar 100 kg tirik vaznga 2-2,5% quruq oziq modda iste'mol qilishlari zarur. Bu cheklovlar sigirlarning semirib ketmasligi uchun kerak bo'lib, bu hol homilaning haddan tashqari rivojlanib ketish havfi bilan ham bog'liq. So'nggi holatda esa sigir bolalash paytida qiyinchiliklarga uchrab, keyingi qochishga halaqit berishi mumkin.

Maxsus ratsion bolalashdan oldingi muddatning boshidan boshlab beriladi (bug'ozlikning 218-223 kunlari) va bug'ozlikning 263 kunigacha davom etadi.

Agar ushbu muddatda sigirlar vazni ortadigan bo'lsa, ularni alohida guruhga ajratib, zarur holga kelgunga qadar maxsus parvarish qilish kerak lozim.

Tranzit muddat (sigirlar bolalashga yaqin qolgan muddat)

Tranzit muddat – bolalashga tayyorgarlik ko'rish va maksimal sut berish davri hisoblanadi.

Bolalashga 15 kun qolganda (homiladorlikning 263-278 kunlari) sigirga o'tish ratsioni beriladi. Bundan ratsionga o'tishdan maqsad – oshqozon mikroflorasi va sigir ichki modda almashinuvini birdaniga quvvati kuchli (tug'ishning birinchi kuni), protein va boshqa oziq moddalalariga boy oziqlanishga o'tishga tayyorlash hisoblanadi.

Sog'in muddati (sog'in ratsioni)

Sog'in muddati – bu sigirni maksimal darajadagi sut mahsuldorligiga olib chiqish davri hisoblanadi.

Sigir bolalagandan keyingi 50-70 kun davomida sigir organizmi sut berish mahsuldorligini maksimal darajagacha olib chiqishga qodir muddat hisoblanadi. Eng yuqori sut mahsuldorligiga ikki yo'l bilan erishiladi:

- 1) sigir yelinini ishlab chiqarilgan sutdan maksimal darajada bo'shatish yo'li bilan – bunda kuniga uch mahal (har sakkiz soatda) to'g'ri va atoydil sog'ish orqali;
- 2) maxsus ratsion yordamida (sigir hoxishiga binoman) sigirni to'yganicha oziqlantirish yo'li bilan.

Sut berish (laktasiya) mahsuldorligi maksimal darajaga chiqqan paytida sigirlar o'z og'irligining to'rt-besh foizi miqdorida quruq ozuqa ratsionini iste'mol qilishi mumkin.

Ushbu muddatda sigirga beriladigan sog'in ratsioni (1 kg. quruq ozuqa moddasiga ketadigan eng qimmat ratsion) birmuncha yuqori proteinli tarkibga ega (18,5-19% protein) va bu orqali sigir organizmini maksimal miqdorda sut ishlab chiqarish va berishga undaydi. Laktasiya davrining eng yuqori nuqtasida olingan har bir qo'shimcha litr sut unga laktasiyaning oxiriga qadar 250-300 litr sut berish imkonini beradi.

Sog'in muddati oxiriga kelib (sigir bolalagandan keyin 60-70 kundan keyin) odatda sigir qochishga tayyor bo'ladi va qochishi kerak.

Mahsuldorligi juda yuqori bo'lgan sigirlar laktasiya muddati boshida yetarlicha quvvatli bo'lmagan oziqlantirish natijasida o'zini quvvat bilan ta'minlay olmaydi. Bunday sigirlar quvvat kamomadini boshidan kechiradilar va energiya va ozuqa kamchiligini o'z organizmi resurslaridan foydalangan holda qoplaydilar.

Bunday holda chorva moli ahvoli birdaniga yomonlashish ham mumkin. Ba'zi sigirlar energiya kamomadi davrida 150 kggacha vazn yo'qotadilar. O'rtacha, har bir kg yo'qotilgan vazn sigirga qo'shimcha 5-8 litr sut ishlab chiqarish imkonini beradi. O'z vaznidan 4-4,5% miqdorda ozurqa iste'mol qilish va ratsion quvvatli oziq moddalari bilan to'yintirilgan holatda sigir o'z organizmidagi energiya

muvozanatini tiklaydi hamda maksimal darajada sut ishlab chiqarishga chiqadi, ayni paytda qochish imkoniyatiga ham ega bo'ladi.

Sog'indan keyingi muddat (yuqori sut keltiruvchi ratsion)

Sog'indan keyingi muddat –maksimal foydalilik muddati

Laktasiya muddatining eng yuqorigi nuqtasiga chiqqandan keyin sigir asta sekin mahsuldorlikni oyma-oy kamaytira boradi (o'rtacha 6-9%). Ammo, shunday bo'lsada, keyingi 3-5 oy davomida sigir yetarlicha oziqlangan, oziqda 15-18% protein miqdori bo'lgan holda yetarlicha ko'p miqdorda sut berishga qodir bo'ladi. Ushbu muddat oxiriga kelib quruq ozuqa iste'mol qilish miqdori laktasiya yuqori nuqtasidagi 4%dan 2% tushadi. Odatda homiladorlikning 210-220 kunlariga kelib sigir sut ishlab chiqarishni ancha kamaytiradi va u quruq ozuqalardan oziqlanishga o'tkaziladi.

Kam mahsuldor muddat

Ba'zan sigir laktasiyaning 5-6 oylariga kelib sut berishni sezilarli darajada kamaytiradi. Ushbu muddat davomida sigirga yuqori quvvatli ratsion bilan oziqlantirish iqtisodiy jihatdan o'ini oqlamasligi mumkin va sigirning semirib, homilaning haddan tashqari rivojlanib ketishiga olib kelishi mumkin. Mahsuldorlikning keskin kamayishi birinchi navbatda genetik muammolar bilan bog'liq (sigir nasli yetishmovchiliklari).

Sut berishning keskin kamayib ketishiga yana bir sabab turli kasalliklardan tashqari sigirni oziqlantirish, sug'orish yoki boqish rejimidagi buzilishlar bo'lishi mumkin.

Bunday holda sut ishlab chiqarish foydaliligini ta'minlash va sigirning semirib ketishining oldini olish maqsadlarida kam kaloriyalı oziqlantirishga o'tish ham mumkin. Bunday ratsion ozuqaning 3%dan 2 % o'tish bilan chegaralanadi. Sut mahsuldorligi bo'yicha genetik yetishmovchiliklar faqat keyingi avlodlarda boshqa urug'lantiruvchi ho'kizlardan foydalanish orqali bartaraf qilinadi. Bu yo'l bilan bo'lajak sog'in sigirlarga laktasiya yuqori nuqtasida erishilgan darajaning eng kamida 75% miqdorida sut berish xususiyatini o'tkazish umkin bo'ladi.